

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Bir hamkasbim o'qituvchilarga toifa berish bo'yicha taklif bildirdi. Unga ko'ra, toifa stajga qarab belgilansa, adolatli bo'larmish. Bu — biryoqlama qarash. 20 yillik tajribaga ega o'qituvchilarimiz orasida bilimi hanuzgacha talabga javob bermaydiganlari topiladi.

4-bet

Rahbar kadrlar ham attestatsiyadan o'tkazilishi kerak

Rahbar attestatsiyadan o'tib kelgan xodimidan natija so'raydi. Xo'sh, uning o'zi-chi? U ham kimgadir hisobot berishi kerak emasmi? Qolaversa, maktab direktori o'z navbatida pedagog ham.

5-bet

Ilmiy unvonlar berishda OAK aralashuviga chek qo'yish kerak

Birgina misol, Namangan davlat universiteti talabalari uyarlardagi ichimlik suvi jo'mraklarini umivalnikdagi kabi ko'tarsa, suv keladigan qilib o'rnatish g'oyasini matbuotda bir necha bor e'lon qilgan edi.



7-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqq boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 31-iyul, chorshanba № 59 (9228)

Xalq ziyolilari gazetasi



Beburdlik

yoxud "Yosh kitobxon" tanlovining Qashqadaryo viloyati bosqichidagi ko'zbo'yamachiliklar xususida

8-9-betlar



Test — 2019:

kelmayotgan nazoratchilar

Bu yilgi test sinovlariga o'tgan yilgidan ertaroq start berildi. 29-iyul kuni boshlangan kirish imtihonlari endi 15 kun emas, 18 kun davom etishi rejalashtirilgan.

Test sinovlarining birinchi kuni respublikamizdagi 66 ta binoda imtihon bir vaqtda — 1-smenada 8:00 dan 11:20 ga, 2-smenada 15:00 dan 18:20 ga qadar davom etdi. Dastlab test sinovlari o'tkaziladigan binolar soni 69 tani tashkil etishi rejalashtirilgan edi, biroq abituriyentlar soni rejadagidan kam bo'lgani sabab imtihonlar 66 ta binoda o'tkazildi. Imtihonlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro viloyati va Toshkent shahridagi bittadan zaxiradagi binolarda o'tkazilmaydigan bo'ldi.

— Toshkent arxitektura-qurilish institutiga hujjatlarimni topshirdim. Bu yil o'qishga kirish uchun uchinchi bor urinishim. Uchta yo'nalishga hujjat topshirganim uchun ko'nglim to'q, — deydi.

Kattaqo'rg'on tumanidan kelgan abituriyent Behruz Saydullayev. — Test sinovi "O'zko'rgazmasavdo" majmuasida bo'lib o'tdi. Binoda barcha sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, yozning issiq kunlari konditsionersiz katta sig'imdagi xonada imtihonlarni o'tkazish ancha qiyin bo'lardi. Xayriyatki, biz imtihon topshirgan binoda bunday holatlar bo'lmadi. Bundan tashqari, "bunker", "x variant" yoki "rektor guruhlari" kabi noqonuniy xatti-harakatlarni ham sezmadim. Chunki bu yil faqat bir oliy ta'lim muassasasi yoki muayyan fakultetlarni bir joyga to'plagan holda imtihonlar o'tkazilmayotgani turli noqonuniy ishlarining ham oldini olyapti, chamamda.

3-bet

Mutasaddilardan javob keldi

Yoshlar ittifoqi barcha yosh sportchilarni qo'llab-quvvatlaydi



"Ma'rifat" gazetasining 2019-yil 17-iyul sonida chop etilgan ochiq xat biz uchun kutilmagan voqea bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda mamlakatimiz yoshlarining jahon arenalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari hech kimga sir emas, xususan, sportning shaxmat turida o'tgan yili o'smirlar o'rtasida jahon shaxmat olimpiadasida g'olib chiqqan Javohir Sindorov, Nodirbek Yoqubboyev, Nodirbek Abdusattorov va Shamsiddin Vohidov o'zbek sportining faxri hisoblanadi.

Yoshlar ittifoqi ham yurtimizdagi shaxmatsevar yoshlarni rag'batlantirish, ular orasidan eng kuchlilarini tanlab olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sport, Xalq ta'limi vazirliklari, Jismoniy tarbiya va sport jamg'armasi, O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi bilan hamkorlikda "Yoshlar shaxmat taxtasi" an'anaviy respublika ochiq turnirini o'tkazib kelmoqda. 2019-yilda mazkur turnirda 6 ta yosh toifasida (7, 9, 11, 13, 15 va 19 yoshgacha) 530 ming nafardan ortiq yoshlar ishtirok etdi.

4-bet

“Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi — amalda

Ma'naviyatli yoshlar — yurt kelajagi

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi tomonidan “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi hamda Prezidentimizning 5 ta muhim tashabbusi ijrosiga yo'naltirilgan qator tadbirlar tashkil etildi.

Tadbir ishtirokchilari dastlab Xo'jayli tumanida “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Hududda joriy yilning o'tgan davrida besh nafar yosh tadbirkor 980 million so'mlik imtiyozli kredit bilan ta'minlandi. Jumladan, dastur asosida “Yoshlar — kelajagimiz” jam'ar-masi Xo'jayli tuman filialidan imtiyozli 300 million so'm kredit olib, tadbirkorlik faoliyatini boshlagan yakka tartibdagi tadbirkor Muhammad Joldasov mebel ishlab chiqarish sexini ochdi. Bu yerda 6 nafar yosh doimiy ish bilan ta'minlandi. Yosh tadbirkor tomonidan ishlab chiqarilgan mebellar Xo'jayli dehqon bozoridagi maxsus do'kon orqali sotilmoqda. Yana bir yosh tadbirkor Gulnoza Kadirova esa filial tomonidan ajratilgan 700 million so'm kredit evaziga avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatadigan “Avto servis Xojeli” mas'uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etdi. Bugungi kunda 20 nafar

yosh doimiy ish bilan ta'minlandi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali qoshidagi akademik litseyda “IT” yo'nalishi bo'yicha mahorat darsi o'tkazildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ixtisoslashtirilgan san'at maktabida yoshlar ijodiyoti san'at ko'rgazmasi tashkil etildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Nukus shahar kengashi tomonidan “Hunarmand” uyushmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ko'rgazmada 80 nafar faol va iqtidorli yigit-qizning mahsulotlari namoyish etildi.

Nukus shahridagi Yoshlar markazida “Yosh kitobxon” ko'rik-tanlovining mamlakat bosqichi g'olibi Nursulov Qokanova ishtirokida kitobxonlikka bag'ishlangan davra subbati o'tkazildi.

Tadbir ishtirokchilari hududdagi tadbirkorlik subyektlari, ommaviy axborot vositalari hamda harbiy qismlarda ham bo'lishdi.

Shuningdek, tadbirlar doirasida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug harbiy qismlarining “Amir Temur izdoshlari”, “Adolat” va “Tinchlik posbonlari” jamoalari, Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi harbiy qismning “Lochin”, Milliy gvardiyaga qarashli harbiy qismning “Yosh gvardiyachilar”, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qismning “Sarhad” hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Bojxona boshqarmasi “Bojxonachilar” jamoalari o'zaro bahslashdi. Qizg'in bahs va munozaralarga boy o'tgan “Bilimdonlar arenesi”da adabiyot, san'at, tarix fanlaridan mantiqiy savollar o'rtaqa tashlanib, jamoalarning bilimi sinovdan o'tkazildi.

G'olib va faol ishtirok etgan jamoalarga diplom, esdalik sovg'alari berildi.

Nukus shahri “Yo'lbichlar” mahalla fuqarolar yig'inida mini-futbol bo'yicha “Yoshlar kubogi” bo'lib o'tdi. Musobaqa yakunida Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialining “Yoshlar” jamoasi birinchi, Nukus shahridagi “Samanboy” mahalla fuqarolar yig'inining “Do'stlik” jamoasi ikkinchi, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti Nukus filialining “SamVMI” jamoasi uchinchi o'rinni egalladi.

Dovud ABULLAYEV,
O'ZA muxbiri

Odam savdosiga qarshi kurash sohasida xalqaro tajriba

Toshkentda 30-iyul — Jahon odam savdosiga qarshi kurash kuni munosabati bilan o'zbek tilida nashr etilgan “Odam savdosi jabrdiydalarini o'z yurtiga qaytarish jarayonida inson huquqlariga amal qilish bo'yicha dasturiy tamoyillar” to'plamining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining mamlakatimizdagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi, Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan hamkorlikda tashkil etilgan anjumanda vazirlik va idoralar, diplomatik korpus vakillari, fuqarolik jamiyati institutlari, akademik doiralarda vakillari ishtirok etdi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz direktori Akmal Saidov, YXHTning mamlakatimizdagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi Jon Makgregor va boshqalar O'zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha ham izchil hamkorlik qilib kelayotganini, xususan, jahon hamjamiyati tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslarni hayotga joriy etishda faol ishtirok etayotganini ta'kidladi.

Yaqinda odam savdosidan jabr ko'rgan 156 nafar O'zbekiston fuqarosining yurtimizga qaytarilgani, ularga ruhiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatilgani

mamlakatimizda inson qadr-qimmatini oliy qadriyat ekanidan yana bir dalolat bo'ldi.

Ma'lumki, YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi 2008-yili mamlakatlarda odam savdosi jabrdiydalari va noqonuniy migrantlarni yurtiga qaytarish yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish tashabbusini ilgari surgan edi. Bunda odam savdosi jabrdiydalarini qaytarishning turli jihatlariga, mazkur jarayonning inson huquqlari sohasidagi me'yor va majburiyatlarga muvofiqligini o'rganishga alohida e'tibor qaratish zarurligi belgilandi.

Tadqiqotlar natijasida hukumat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari uchun odam savdosi jabrdiydalarini qaytarish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan standartlarga talab yuqori ekan ma'lum bo'ldi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashabbusi bilan o'zbek tiliga tarjima qilingan to'plam ayni shu muammoni ijobiy hal etishdagi ilg'or tajribaga bag'ishlangan. Qo'llanmada YXHT mintaqasida jabrdiydalarni qaytarish sohasidagi siyosat, tartib va amaliyot, jarayonda ishtirok etayotgan tomonlar manfaatlarini kabi masalalar bayon etilgan.

Tadbir doirasida yangi to'plam mazmun-mohiyati, O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurash, bu boradagi milliy tajriba, mamlakatimizning YXHT bilan mazkur yo'nalishdagi hamkorligi yuzasidan ma'ruzalar tinglandi.

G'ayrat XONNAZAROV,
O'ZA muxbiri

Ayollar manfaati doimiy e'tiborda

Poytaxtimizda Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya ijrosi yuzasidan mamlakatimizda olib borilgan ishlar muhokamasiga bag'ishlangan uchrashuv o'tkazildi.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tashkil etilgan uchrashuvda tegishli vazirlik va idoralar, jamoat va xalqaro tashkilotlarning mutasaddilari ishtirok etdi.

Xotin-qizlar manfaatlarini himoyalash, ularning jamiyatda kechayotgan islohotlar jarayonidagi faolligini yanada kuchaytirish, har jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasi yurtimizda kechayotgan tub o'zgarishlarda ustuvor o'rin egallaydi. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, opa-singillar bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etishga doir ishlarni yangicha asosda yo'lga qo'yishda muhim huquqiy asos bo'lmoqda.

Ma'lumki, xotin-qizlarning teng huquqli bo'lishiga erishish yo'lida 1979-yil 18-dekabrda muhim qadam qo'yilgan edi. Shu kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasi Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani qabul qildi. 30 ta maddadan iborat bo'lgan konvensiyada, barcha xotin-qizlarning teng huquqligini ta'minlashga yo'naltirilgan xalqaro-huquqiy shakldagi tamoyillar va choralar aniqlab berilgan.

O'zbekiston mazkur konvensiyani 1995-yilda qabul qilgan va uning ijrosi yuzasidan mamlakatimizning 5 ta davriy ma'ruzasi BMTning CEDAW qo'mitasida muhokamaga qo'yilib, xotin-qizlarning holatini yanada yaxshilash bo'yicha zarur tavsiyalar belgilangan.

2019-yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning CEDAW qo'mitasida (Jeneva shahri) Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish konvensiyasining bajarilishi bo'yicha 6-davriy ma'ruzasi taqdim etiladi. 5-davriy ma'ruzasini ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra CEDAW qo'mitasi tavsiyalarini bajarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Milliy harakatlar rejasi qabul qilingan.

Mazkur konvensiya yurtimizda xotin-qizlarga oid qabul qilingan milliy qonunchilikka uyg'unligi bilan ahamiyatlidir. Yuqorida nomi keltirilgan farmonga muvofiq yurtimizda Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etildi. Qizlar, o'smir qizlar salomatligi, ta'lim olishiga oid ishlar yanada takomillashtirildi. Joylarda og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarni o'z vaqtida aniqlash, ular bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish bo'yicha muayyan tizim yo'lga qo'yildi. Yurtimizning turli hududlarida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha biznes inkubatorlar faoliyati keng yo'lga qo'yildi. Mahallalarda xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha 9 mingdan ortiq mutaxassis ish olib bormoqda.

Uchrashuvda jamiyat rivojida ayollarning o'rni, onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar yaratilishi, fidoyi, yuksak salohiyatli, izlanuvchan, bilimdon, o'z kasb-korining ustasi bo'lgan xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarning huquqiy, ijtimoiy, madaniy manfaatlarini muhofaza qilish, ularning faoliyatiga halaqat berayotgan to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha fikr yuritildi. Shuningdek, xotin-qizlarning bandligi masalasini hal qilishga ko'maklashish, mehnat qilish va dam olishini tashkil etish kabi masalalar bo'yicha fikr almashildi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Elmira Bositxonova so'zga chiqdi.

Nazokat USMONOVA,
O'ZA muxbiri

Oliy ta'lim

O'qishni ko'chirish yoki tiklash tartibi qanday?

2019-2020-o'quv yili kuzgi semestriga qadar oliy ta'lim muassasasidagi o'qishni ko'chirmoqchi, ko'chirib tiklamoqchi yoki qayta tiklash istagida bo'lganlar harakatni bugundanoq boshlashlari kerak. Chunki o'qishni ko'chirish (shu jumladan, xorijiy OTMdan ham) va ko'chirib tiklash to'g'risidagi arizalar va hujjatlar 2019-yilning 15-iyulidan 5-avgustigacha vazirlikning hududiy ishchi guruhlari tomonidan qabul qilinadi. Bahorgi semestr uchun esa qabul har yili 20-dekabrda 20-yanvargacha davom etadi.

Arizalarni qabul qilish bo'yicha hududiy ishchi guruhlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi bittadan OTMda tashkil etiladi. Tashkil etilgan hududiy ishchi guruhiga ariza (ariza blankalari hududiy ishchi guruhi tomonidan beriladi), pasport nusxasi hamda reyting daftarchasi yoki akademik ma'lumotnoma nusxasi taqdim qilinishi kerak. Bundan tashqari, qayd etilgan hujjatlardan boshqa, ko'chirish bilan bog'liq sabablarni asoslovchi tavsiyaviy xarakterga ega hujjatlarni topshirish majburiy emas.

— O'qishni boshqa bir OTMga ko'chirishni nafaqat muayyan mamlakat ichidagi OTMlar o'rtasida, balki xorijiy davlatlardan O'zbekistondagi OTMlarga ham amalga oshirish mumkin, — deydi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi axborot xizmati rahbari Farhod Babashev. — Deylik, siz Rossiyadagi universitetlarning birida tahsil olayapsiz, lekin o'qishni O'zbekistonga ko'chirish istagi tug'ildi. Bunday paytda siz o'qib turgan universitet xalqa-

ro reytingga kiruvchi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatida bo'lmasa, tanlangan ta'lim yo'nalishi bo'yicha kirish fanlaridan maxsus imtihon topshirish zarur (masalan, o'qishni Toshkent tibbiyot akademiyasining davolash ishi ta'lim yo'nalishiga ko'chirmoqchi bo'lganlar biologiya, kimyo, ona tili va adabiyot fanlaridan imtihon topshiradilar). Mazkur maxsus sinovlarning o'tkazilish shakli va muddati O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilanganidan so'ng Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Shuningdek, Qozog'istonning Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universitetidan o'qishingizni ko'chirmoqchisiz. U holda bu ish hech qanday maxsus sinovlarsiz amalga oshiriladi. Chunki Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti QS xalqaro reytingida TOP-1000 talikka kiradigan universitetlar ro'yxatining 491-o'rnida turadi. Aytish kerakki, ko'zi ojizlar

toifasiga kiruvchi hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga ajratilgan kvota doirasida davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalarining o'qishini oliy ta'limning mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklariga davlat granti asosida ko'chirishiga ruxsat etiladi.

Boshqa hollarda, shuningdek, xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'qishni ko'chirish ham to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Qanday holatlarda fuqaroning o'qishini ko'chirish va qayta tiklash haqidagi arizasi rad etiladi?

— xorijiy davlatlarning akkreditatsiyaga ega bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida yoki ularning filiallarida o'qiganlarga;

— respublika oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud ta'lim shaklidan o'zga (boshqa) ta'lim shaklida o'qiganlarga;

— oliy ta'lim muassasalarining markazlari, bo'limlari, o'quv-maslahat punktlari va boshqalarda o'qiganlarga;

— birinchi kursning birinchi semestriga birinchi semestr tugallanmagan holatda o'qishni ko'chirishga (talabaga kasallik tufayli akademik ta'til berilgan holatlar, o'qigan ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lmaganda ko'chirib tiklash holatlari bundan mustasno);

— oliy ta'lim muassasasida mos (turdosh) ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) yoki ta'lim shakli mavjud bo'lmasa;

— namunaviy o'quv rejalari-dagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo'yicha farqlar 4 tadan oshganda;

— to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlar to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirmaganda;

— talabaniy shaxsiy yig'ma jildi (akademik ma'lumotnoma) belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda;

— oliy ta'lim muassasasiga davlat granti asosida ko'chirish va qayta tiklash davlat granti asosida ta'lim oluvchilar soni (qabul kvotalari) doirasida bo'sh o'rinlar mavjud bo'lmasa;

— oliy ta'lim muassasasi moddiy-texnika bazasining imkoniyati cheklanganda;

— maqsadli qabul qilinganlar boshqa ta'lim yo'nalishi yoki ta'lim shakliga, boshqa oliy ta'lim muassasasiga;

— kechki (smenali) ta'limdan sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limga hamda kechki (smenali) ta'limning bir ta'lim sohasidan ikkinchi ta'lim sohasiga;

— sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limdan kunduzgi ta'limga hamda sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limning bir ta'lim sohasidan ikkinchi ta'lim sohasiga;

— bir ta'lim shaklidan maxsus sirtqi ta'lim shakliga hamda maxsus sirtqi ta'lim shaklidan boshqa ta'lim shakliga;

— talaba O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinib, qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olgan yoki tahsil olayotgan bo'lsa (mazkur qo'shma dasturning o'zi bundan mustasno).

Yuridik universitet uchun...

Toshkent davlat yuridik universitetida tahsil olayotgan talabalar ikkinchi kursdan boshlab o'qishning bir o'quv yiliga boshlab bo'lgan muddatda xorijiy oliy ta'lim muassasasining yurisdiksiya yo'nalishida o'qish huquqiga ega. Talabaniy xorijiy oliy ta'lim muassasasida o'qigan davri va o'zlashtirgan fanlari xorijiy oliy ta'lim muassasasi ma'lumotnomasi asosida universitet kengashi tomonidan universitet o'quv rejasini va dasturlarining tegishli qismlarini o'zlashtirgani sifatida qabul qilinishi va talabaga o'qishini tegishli o'quv semestrda davom ettirish huquqi berilishi mumkin.

Talabalar o'qishini ko'chirish uzrli sabablarga ko'ra (respublikaning bir hududidan ikkinchi hududga doimiy yashash uchun yoki turmushga chiqish munosabati bilan turmush o'trog'i doimiy yashaydigan (pasport bo'yicha doimiy ro'yxatdan o'tgan) hududga ko'chib o'tganda, turmush o'trog'i yoki ota-onasi harbiy xizmat o'tash joyini o'zgartirganda, yoxud ota-onasi (turmush o'trog'i) xorijdagi davlat xizmatidan qaytganda) bahorgi semestrda o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin.

Kuzgi semestr uchun esa arizalarni oliy ta'lim muassasasi, tegishli vazirlik (idora) yoki Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqib, qaror qabul qilish har yili 5-avgustdan 30-avgustga qadar amalga oshiriladi.

F.AVLAYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Test — 2019: kelmayotgan nazoratchilar

(Davomli. Boshi 1-betda.)

Abituriyentlar kech qolmaydi, shunchaki ushlab qolishadi

Test sinovlarining birinchi kuni respublika miqyosida umumiy hisobda 71 340 nafar abituriyent test sinovlarida ishtirok etishi kerak edi. Biroq shundan 2 538 nafari imtihonlarda qatnashmadi. Birinchi kun uchun natija yomon emas. Har kuni 2 500 dan ortiq abituriyent imtihonda ishtirok etmasa, 18 kun ichida 45000 abituriyent bir yilda bir keladigan imkoniyatdan mahrum bo'ladi, degani. Jumladan, Toshkent shahrida 734, Samarqand viloyatida 310 hamda Farg'ona viloyatida 241 nafar abituriyent test sinovlariga kelmagan.

— Test sinovlarining birinchi kuni tartib-qoidalarini buzgani sababli 13 nafar abituriyent hududga kirish joyida, 53 nafari binoda test sinovlaridan chetlashtirilgan, — deydi Davlat test markazi bosh boshqarma boshlig'i Barno Rajabov. — Aytish kerakki, abituriyentlardan tashqari guruh nazoratchilaridan ham kelmaganlar bo'ldi.



Chunki test sinovlarini o'tkazishga ta'lim muassasalaridan 2 622 nafar guruh nazoratchisi jalb etilgandi, afsuski, 46 nafar nazoratchi imtihon jarayonida ishtirok etmadi.

Ikkinchi kun tafsiloti

Test sinovining ikkinchi kuni birinchi yarmida 35 670 abituriyent imtihon topshirishi kerak edi. Test sinovlariga kelmaganlar soni 945 nafarni tashkil qilmoqda.

Afsuski, ikkinchi kuni ham 1-smenaning o'zida 39 nafar guruh nazoratchisi ishtirok etmagan. Aslida imtihon jarayonlari tartibli o'tishi, ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lmasligi va shaffoflikni ta'minlashda aynan guruh nazoratchilarining hissasi katta emasmi?

Onlayn kuzatamiz

"O'zbektelekom" AK tomonidan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qi-

lish test sinovi jarayonlarini onlayn kuzatish uchun Android tizimida ishlovchi telefonlarga mo'ljallangan mobil ilova ishlab chiqildi. Ana shu ilova orqali test jarayonlarini bemalol xohlagan yerda turib kuzatish imkoniga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, test sinovlarini <https://test2019.uz/> saytida TAS-IX tizimida ham kuzatib borishingiz mumkin. Shuningdek, imtihonni televizor orqali onlayn ravishda Visat Explorer telekanali orqali ham tomosha qilish imkonini mavjud.

Imtihon natijalari bir kunda chiqadimi?

Test natijalari abituriyent imtihon topshirgan kunning ertasiga, ya'ni kunning ikkinchi yarmida e'lon qilinadi. Abituriyent necha ball to'plaganini dm.uz saytidagi o'zining shaxsiy kabinetiga kirib ko'rishi mumkin. Abituriyentlarning o'qishga kirgan yoki kirmagani esa barcha test sinovlari yakunlangandan so'ng bir haftanig ichida e'lon qilinishi rejalashtirilgan.

Fayoza TO'RA qizi

Rag'batlantirishdagi muammo va yechimlar

Yoshlarimizning nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etib, o'z bilimi bilan yurtimiz sha'nini himoya qilishi O'zbekistonda ta'limning sifat darajasi qanday ekanini butunjahon oldida namoyish etadi. Shu bois ham o'quvchi-yoshlarning bu boradagi natijalarini yaxshilash maqsadida mamlakatimizda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ulardan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi yaratilmoqda.



Xususan, joriy yilning 3-may kuni Prezidentimizning "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorni qabul qilish bilan bog'liq muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni keng ommaga yetkazish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida matbuot anjumani tashkil etdi. Unda Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari Alisher Umarov va O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi o'rinbosari Dilnoza Kattaxonova ishtirok etdi.

Anjumanda maktablarda iqtidorli bolalar bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yish, o'quvchilarning qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish, yoshlarni respublika va xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash borasidagi mavjud muammolar xususida so'z yuritildi. Jumladan, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ulardan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi yo'lga qo'yilmagani, olimpiadalar tashkil etishning moliyalashtirish tartibi aniq belgilanmagani, intellektual musobaqalar g'oliblari, ularning o'qituvchilari va maktab direktorlarining munosib rag'batlantirilmagani, fan olimpiadalar g'oliblarining kelgusidagi faoliyati muntazam monitoring qilinmagani, qo'llab-quvvatlanmagani xalqaro olimpiadalarda

O'zbekiston yoshlarining muvaffaqiyati ko'payishiga monelik qilib kelgan. Buni xalqaro olimpiadada ko'rsatkichlarida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, informatika va axborot texnologiyalari fanidan xalqaro olimpiadada terma jamoamiz 2015-yilgacha ishtirok etmagan va hozirga qadar birorta ham medalni qo'lga kiritmagan. Ta'kidlash joizki, Qozog'iston terma jamoasi bugungacha mazkur fan olimpiadasida 52, Tojikiston terma jamoasi esa 7 ta medalni qo'lga kiritgan. Shuningdek, fizika va matematika fanlaridan o'tkazib kelinadigan xalqaro olimpiadalarda ham O'zbekiston yoshlarining ko'rsatkichlari qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Tojikiston) va xorijiy mamlakatlar ko'rsatkichlaridan ancha past ekanini aniqlangan.

Bu muammoni bartaraf etish maqsadida Prezident qaroriga muvofiq Xalq ta'limi vazirligida 14 shtat birligidan iborat fan olimpiadalar bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash departamenti tashkil etildi.

Qarorga asosan respublika va xalqaro olimpiada g'oliblari, ularning o'qituvchilarini rag'batlantirishning yangi mexanizmlari ishlab chiqildi. G'oliblar va ularni tayyorlagan o'qituvchilarni bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlash belgilandi.

Anjuman so'ngida jurnalistlar mavzu doirasida o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob oldilar.

Zilola MADATOVA,

"Ma'rifat" muxbiri

V.GRANKIN olgan surat.

Yoshlar ittifoqi barcha yosh sportchilarni qo'llab-quvvatlaydi

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Tumarning hududiy bosqichlarida har bir yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan 168 nafar yoshlar joriy yilning 6-8-mart kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Yoshlar" oromohida o'tkazilgan final bosqichida ishtirok etdi. Ushbu musobaqaning g'olib va sovrindorlaridan iborat 60 nafar o'g'il-qiz uchun 10 kunlik o'quv-mashg'ulot yig'ini tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgustdagi "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida 2018-yilda dunyoning eng yosh grossmeysteri bo'lgan iste'dodli shaxmatchimiz Javohir Sindorov va ustozlari Yoshlar ittifoqi tomonidan munosib taqdirlandi.

Gazetada keltirib o'tilgan muammo, albatta, bizni befarq qoldirmaydi. Jahon chempionati musobaqalarida mamlakatimiz vakillarining ishtirok etishi bu butun o'zbek sporti uchun juda muhim. 2019-yil 20-avgustdan 2-sentabrgacha 8, 10 va 12 yoshli bolalar o'rtasida shaxmat bo'yicha Xi-toyda bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga boradigan yosh sportchilarimizni, albatta, qo'llab-quvvatlaymiz. 2019-yilda O'zbekiston chempioni bo'lgan yoshlarimiz Malika Jumayeva (8 yoshli qizlar o'rtasida, Sirdaryo), Javohir Bozorov (8 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida, Toshkent), Afro'za



Hamdamova (10 yoshli qizlar o'rtasida, Samarqand), Komron Karimov (10 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida, Samarqand), Guldona Karimova (12 yoshli qizlar o'rtasida, Samarqand), Davlatbek Mahmudjonov (12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida, Qashqadaryo)ning jahon chempionatiga borib, ishtirok etib kelishi O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Ishonamizki, yosh umidli sportchilarimiz mazkur musobaqada ham o'zbek shaxmat maktabining g'alabali an'analari davom ettiradi.

Nodirbek ABDUQODIROV,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy kengashi
axborot xizmati rahbari

O'qituvchi nimani o'g'laydi?



✓ Bir hamkasbim o'qituvchilarga toifa berish bo'yicha taklif bildirdi.

Unga ko'ra, toifa stajga qarab belgilansa, adolatli bo'larmish. Bu — bir-yoqlama qarash. 20 yillik tajribaga ega o'qituvchilarimiz orasida bilimi hanuzgacha talabga javob bermaydiganlari topiladi. O'qituvchilar va tibbiyot xodimlariga toifa belgilashda o'quvchilari erishgan yutuqlar hamda davolagan bemorlarining keyingi holati ham e'tiborga olinishi lozim, deb hisoblayman.

Sano USMONOV

✓ Mana, navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tganimizga ham bir oydan oshdi. Na sertifikat, na buyruqdan darak bor! Qarorda boshqa gap, amalda boshqa...

G'ayratjon QORABEKOV

✓ Yaqinda bir o'quvchimni ko'rib qoldim. Maktab boshlanishini orziqib kutayotganini aytdi. Odatda bolalardan buning teskarisini eshitardim. Bechora o'quvchim ikki oydan buyon turli o'quv kurslariga va sport to'garaklariga tinimsiz qatnabdi. Bu yaxshi, ammo bola ruhan va ma'nauanalar tushunmasa?! Axir, qo'shimcha mashg'ulotlardan charchagan organizm yangi o'quv yilini o'qishdan bezor bo'lgan holatda boshlashi mumkin.

Dilrabo LUQMONOVA

✓ Kiyinishimiz o'zgarsa, siz o'qituvchisiz, sizga yarashmaydi, deyishadi. Haq-huquqimizni so'rasak, diplomli bo'laturib, shunday deysizmi, sizga yarashmaydi, deb og'zimizga urishadi. Bozorda xarid ustida savdolashsak yoki to'y-hashamda bemalol o'ynab-kulsak, ziyoli insonsiz, sizga yarashmaydi, deb ta'kidlashadi. O'qituvchilarning muammolarini ayttsak, o'zingiz o'qituvchi bo'laturib shunday deysizmi, sizga yarashmaydi, deyishadi yana. Nega boshqalarga yarashgan amallar o'qituvchilarga yarashmaydi?..

QISHLOQLIK O'QITUVCHI

✓ Hozirgi test jarayoni haqida kimdadir e'tirozli gap aytasangiz, o'zingizni bilimsizlikda ayblashadi. Test yomon, demoqchi emasman. Ammo ba'zi savollarni ko'rib, hayron bo'lmay iloj yo'q. Shu savolga javob topa olmasangiz, bilimsizga chiqarib qo'yishadi.

Dilfuza SUVONOVA

Mutasaddilardan javob keldi

Ish haqi va ish stajiga bog'liq

Gazetaning 2019-yil 5-iyun sonida "O'qituvchi 355 ming so'm nafaqa olyapti" sarlavhali maqola chop etilgandi. Unda muallif otasi Pastdarg'om tumanida istiqomat qiluvchi Bekmurod Primovning kam miqdorda nafaqa puli olayotganini, bir necha bor mutasaddilardan bu holatga izoh talab qilganda tayinli javob ololmaganini bayon etgan.

Mazkur maqola yuzasidan tahririyatimizga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati ijro etuvchi direktorining o'rinbosari Sh.Davronov imzosi bilan quyidagi javob xati keldi:

"O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati tomonidan maqola yuzasidan fuqaro T.Primovning otasi B.Primovga pensiya hisoblanishi o'rganildi. Maqolada ko'tarilgan fuqaroning murojaati ijobiy hal etilib, 355 ming so'mdan 378 ming so'mga oshirildi. Pensiya hisoblashda xatolikka yo'l qo'ygan xodimga nisbatan intizomiy jazo chorasi ko'rildi".

Shuningdek, muallif asosan otasining nafaqasi kam ekaniga e'tiroz bildirgandi. Shu bois biz mutaxassislardan pensiya tayinlanishida nimalarga e'tibor qaratilishi bo'yicha ham ma'lumot oldik.

"O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining 7-moddasiga mu-

vofiq, erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda to'liq miqdorda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'ladi.

Pensiya jamg'armasi Samarqand viloyat boshqarmasining bergan ma'lumotiga asosan, fuqaro B.Primovga 24.12.2018-yildan ariza va taqdim etgan hujjatlariga asosan 21 yil 8 oy ish staji bilan 375 420,49 so'm miqdorida yoshga doir to'liq pensiya tayinlangan.

T.Primovning "Ma'rifat" gazetasiga qilgan murojaatiga asosan fuqaro B.Primovga pensiya tayinlanishi o'rganildi. 1993—1998-yillar ish haqidano'rtacha ish haqi hisoblanganda 793 985,35 so'mni va pensiya miqdori 378 466,35 so'mni tashkil etdi.

Pensiya jamg'armasi Pastdarg'om tuman bo'limi mutaxassisning e'tiborsizligi sababli ushbu summa 375 420,49 so'm hisoblangan. Pensiya tayinlashda yo'l qo'ygan kamchiligi uchun xodimga o'rnatilgan tartibda intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.



O'qituvchi 355 ming so'm nafaqa olyapti

O'qituvchi 355 ming so'm nafaqa olyapti. Bu maqolada muallif otasi Pastdarg'om tumanida istiqomat qiluvchi Bekmurod Primovning kam miqdorda nafaqa puli olayotganini, bir necha bor mutasaddilardan bu holatga izoh talab qilganda tayinli javob ololmaganini bayon etgan.

Pensiya miqdori fuqaroning ish staji va ish haqi miqoriga bog'liq. B.Primovning mavjud ish staji 21 yil 8 oyini tashkil etib, erkaklar uchun talab etilgan ish staji 25 yilni tashkil etadi. Shuning uchun fuqaroga to'liqsiz yoshga doir pensiya tayinlangan.

Misol uchun: erkak kishi 25 yil ishlab o'rtacha 2 mln so'm ish haqi olganda uning pensiya miqdori 1 100 ming so'm bo'ladi. Ya'ni, $2\,000\,000 \times 55\% = 1\,100\,000$ so'm.

O'qituvchi minbari

Rahbar kadrlar ham attestatsiyadan o'tkazilishi kerak

So'nggi yillarda o'qituvchilarning nufuzini oshirish, haq-huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratilyapti. Aslini olganda, o'qituvchi obro'sining yuksalishi ko'p omillarga bog'liq. Maoshimiz yaxshilandi, qog'ozbozlik qisqardi, "majburiy" deb atalmish yumushlardan ozod bo'ldik. Hammasi sekin-asta o'z iziga tushyapti.

Ammo ijtimoiy tarmoqlarda ba'zi umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlarning o'z vakolatini suiiste'mol qilayotgani maktab jamoasida ma'naviy muhitning buzilishiga olib kelayotgani, eng achinarlisi, pedagoglarning bilim darajasi talabga javob bermasligi haqida turli xabarlar tarqalmoqda.

Nega shunday? Qilinayotgan ishlarning natijasi qani?

Shuni ham unutmaylikki, endi mavqeyimizni oshirish o'z xatti-harakatimiz, bilimimizga ham bog'liq!

Hozirgi kunda pedagoglarning onlayn attestatsiyadan o'tkazilayotgani va shunga muvofiq malaka toifasi berilayotgani har bir o'qituvchini o'z ustida ishlashga, bilimini oshirishga undamoqda. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun ko'proq o'qiydigan, izlanadigan bo'ldik. O'qituvchilar endi o'zaro o'tirganda ham faqat moddiyat, shaxsiy masalalar xususida emas,

fanga oid savollarga to'g'ri javob izlash ustida bahslashadigan bo'ldi.

Ammo pedagoglarning yakdillik bilan ishlashi, jamoada sog'lom muhit qaror topishi va bilimlil, saviyalil pedagoglarning yuzaga chiqishida maktab rahbarining ta'siri katta. Rahbar bilimlil, harakatchan bo'lsa, qo'l ostidagi o'qituvchilar ham shunga mos harakat qiladi. Ochig'ini aytish kerak, hozirgacha barcha umumta'lim maktablari bilimlil, jamoada ma'naviy muhitni qaror toptiradigan rahbar xodimlarga ega emas. Bu esa ta'lim jarayonida yana ko'plab muammolarni keltirib

Hozirgi kunda pedagoglarning onlayn attestatsiyadan o'tkazilayotgani va shunga muvofiq malaka toifasi berilayotgani har bir o'qituvchini o'z ustida ishlashga, bilimini oshirishga undamoqda. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun ko'proq o'qiydigan, izlanadigan bo'ldik. O'qituvchilar endi o'zaro o'tirganda ham faqat moddiyat, shaxsiy masalalar xususida emas, fanga oid savollarga to'g'ri javob izlash ustida bahslashadigan bo'ldi.

chiqaradi. Pedagog mavqeyini oshirish kabi yuksak maqsadlarning ro'yog'ba chiqishiga monelik qiladi.

Maktab rahbar kadrlarining attestatsiyasi oxirgi marta 2012-yili bo'lib o'tgan. Oradagi tanaffus 7 yilga cho'zildi.

Rahbar attestatsiyadan o'tib kelgan xodimidan natija so'raydi. Xo'sh, uning o'zi-chi? U ham kimdir hisobot berishi kerak emasmi? Qolaversa, maktab direktori o'z navbatida pedagog ham. Afsuski, surishtirangiz, aksariyat egallagan mutaxassisligi bo'yicha yo ikkinchi toifali yoki mutaxassis bo'lib chiqadi. Ularning ham 10 soatdan darsi bor. Ta'lim berayotgan o'quvchilarning natijasi qanday? Umuman, bugungi kunda ayrim rahbar kadrlarning dunyoqarashi, bilim o'qituvchilar va keng jamoatchilikni qoniqtirmaydi.

Shu bois o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazishning aniq tartibi yaratilgani kabi, rahbar kadrlar ham muayyan muddat oralig'ida attestatsiyadan o'tkazilishi lozim. Ularning lavozimga munosib yoki nolo'liq ekani shu attestatsiya natijasiga qarab belgilansin. Bunda eng shaffof va adolatli sinov turi onlayn attestatsiya hisoblanadi. Natijasi ochiq-oydin namoyon bo'ladi.

Rahbar kadrlarning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy savodxonligi yuqori bo'lishi kerak. Ana shunda pedagogik jamoa orasida ham hurmati ortadi.

Siz nima deysiz, aziz mushtariy?

G'ayratjon QORABEKOV,
Bulung'ur tumanidagi 11-maktab o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Kreativlik ijodiy jamoada shakllanadi

O'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mavzuga mantiqiy munosabati jamoa bilan ishlaganda shakllanadi. Negaki, jarayonda o'quvchilar mavzu yuzasidan qizg'in bahs olib boradi, har jamoa o'z dunyoqarashiga ko'ra munosabat bildiradi, bir-birini qo'llovchi, rad etuvchi fikrlar hosil bo'ladi. Bu esa o'quvchiga yangi g'oya beradi, o'z g'oyasini himoya qilishni o'rgatadi, kreativlikni rivojlantiradi.

Bir-birini hurmat qilish, munosabat bildirishda mantiqqa asoslanish, masalaga ijodiy yondashish, fikrini dalillar bilan himoya qilish ijodiy jamoalarning oltin qoidasi hisoblanadi.

Ijodiy jamoa(guruh)lar faolligi ko'pincha muhokama darslarida ko'rinadi. Muhokama darslari mavzu o'tib bo'lingandan so'ng tashkil etiladi. Bundan tashqari, o'tilgan mavzu yoki yangi mavzuni mustahkamlashda ham muhokamaga vaqt ajratilsa, o'quvchi faolligi oshadi. Dastlab sinfda ijodiy jamoa(guruh)larni shakllantirish lozim.

Ijodiy jamoa qanday shakllantiriladi?

Agar guruh a'zolari shunchaki o'quvchi soniga qarab yoki tartib raqami asosida birlashtirilsa, ularning birdamlikda ishlash ehtimoli oz bo'ladi. Guruh a'zolarining hamfikr, hamjihat ishlashi jamoa bo'lishning eng asosiy talablari-dandir. Umumiy yechimni topishga erishish yoki o'quvchilarning bir-biriga ko'mak berishi zarurligini hisobga olib, dunyoqarashi, ijodiy fikrlash doirasi bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilarni bitta guruh tarkibiga kiritamiz.

Buni qanday aniqlaymiz?

6-sinf adabiyot darsida X.To'xtaboyevning darslikda (2017-yil, 56-bet) berilgan "Sariq devni minib" asaridan olingan parcha o'rganilyapti. Keling, uy

vazifasi uchun yozma topshiriq beramiz: "Hoshimjonning sehrli qalpoqchani izlashi bilan bog'liq tasvirlarga diqqat qiling. Uning "oyim aytyapti" deb ikkita nonni qarzga olganini qanday baholaysiz? Sizningcha, Hoshimjonning bu harakati yolg'onchilikmi, shumlikmi?"(81-bet). O'quvchilarning yozma javobiga qarab, mantiqiy, ijodiy yondashuvi bir-biriga yaqin bo'lgan ishlarni saralab, guruhlariga ajratamiz. Ko'rib turganingizdek, bitta topshiriq asosida sinfda uch-to'rtta guruhni tashkil etib oldik.

Shu o'rinda savol tug'iladi: savolga javob berishda hech qanday mustaqil fikr bildirmasdan faqat kitobdagi ma'lumotlar bilan kifoyalanadigan o'quvchilarni qaysi guruhga kiritamiz? Biz bu o'quvchilarni alohida guruh qilmadan faollarga birlashtiramiz, ya'ni jamoa ichida kichik guruhlar o'rtasida ham sog'lom raqobat shakllanadi. O'qituvchining mahorati ham shundaki, sinfdagi o'quvchilarning iqtidorini, iste'dodini, shuningdek, ruhiyatini bilgan holda darajali topshiriqlar bilan o'rganilgan bilimni nazorat qiladi. Quyida jamoada kreativlikni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan muhokama darslaridan namuna keltiramiz:

Muhokama darsi

Namuna: 6-sinf adabiyot darsida X.To'xtaboyevning darslikda (2017-yil) berilgan "Sariq devni minib" asari-

dan parchalar o'rganilgach, o'quvchilar uchun "Bilimsizlik pand beradi" mavzusida muhokama darsi tashkil etiladi (Chunki darslikda mavzu yakunlangach, "Bilimsizlik pand beradi" mavzusida insho yozish topshirig'i bor, 81-bet). Buning uchun mavzu g'oyasini belgilovchi, o'quvchi kutmagan parchalar jamoada muhokama qilinadi. Har bir ishtirokchining xulosaviy fikri tinglanadi. Munozara qilinadi. Dars yakunida barcha fikrlar umumlashtiriladi.

Muhokama uchun matn:

...Ishqilib, ana shu narsalarni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim-u, ertalab nonushtadan so'ng to'ppa-to'g'ri folbin xolamning uyiga qarab yo'l oldim. Hovlisida yetti xotin, beshta chol, uchta bola o'tirishibdi. Hammasi ham kasal bo'lsa kerak, rangi oftob urgan xamakdek sap-sariq. Qalpoqni kiyib sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong'i uyda o'tirib olib rom ochyapti, qarshisida bola qo'ltiqlagan mening oyimga o'xshagan cho'ziq yuzli bir ayol o'tiribdi...

Savol:

1. Nega folbin xolamning uyi odamlar bilan gavjum?
 2. ...Yettita xotin, beshta chol, uchta bola... Nima anglashildi?
 3. ...Rangi oftob urgan xamakdek sap-sariq. Bunda chi?
 4. Folbinning qorong'i uyda rom ochishini qanday tushundingiz?
- Ko'rinib turganidek, o'quvchi asarda bilimsizlikning pand berishi faqat Hoshimjonning emas, kichik matnda tasvirlangan kishilarning xatti-harakatida ham yaqqol sezilishini anglaydi.

Folbin yolg'onlari girdobidagi gavjumlik — bilimsizlik oqibatidan, ya'ni o'zining mustaqil fikri yo'qligidan bir-biriga ko'r-ko'rona ergashadiganlar hisobiga shakllanishi shubhasiz.

...Yettita xotin, beshta chol, uchta bola... Qarang, folbinning "aqli"ligini; kimlarni tez fursatda o'z yo'lg'onlariga ishonтира olishini yozuvchi bir jumla bilan namoyish etyapti. Axir, bu yerda sanab o'tilgan kishilarning hammasi "uyda o'tirgan", kitob o'qimaganidan oq-qorani taniy olmagani uchun yig'ilgan-da.

...Rangi oftob urgan xamakdek sap-sariq. Balki bu bilan jismoniy nosog'lomlik emas, ma'naviy nosog'lomlik haqida gap ketayotgandir. Bu ham bilimsizlikning pand berishi emasmi?

Qorong'i uy detalining qo'llanishi bilimsizlik kishilarning qalbini ham qorong'ilikka chulg'ash orqali, hayot go'zalligidan behabra qoldirayotganini uqtirish uchundir. Najot istab, yorug'lik izlab kelganlar o'zini yana qorong'ilikka urishi ham insonning ilmsizligi oqibati emasmi?!

O'quvchilar jamoa bo'lib ishlaganda fikrini erkin isbotlashga, dalil keltirishga harakat qiladi, mantiqqa tayanadi, tasavvuri kengayadi, qat'iylik bilan o'z g'oyasini himoya qiladi. Noodatiy fikrlar tizimi umumlashtiriladi. Yangi g'oyalar o'rganiladi. Zero, inson tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor bo'ladi. Uning fikrlashi qancha erkin bo'lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo'ladi.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz tumanidagi
9-maktab o'qituvchisi

Didaktik o'yinlar bilan to'g'ri talaffuz sari

Odatda bolalar mashg'ulotlarda muayyan bilim va ko'nikmalarni egallaganlaridan so'ng didaktik o'yinlar o'tkaziladi. Chunki hech qanday bilim, ko'nikmaga ega bo'lmay turib, bu o'yinni o'tkazish samara bermaydi. Didaktik o'yin payti mashg'ulotlarda qo'llaniladigan takrorlash metodidan foydalanishdan maqsad faqat faol bolalarnigina emas, balki bo'sh o'zlashtiruvchilarni ham faollashtirishdan iborat.

Tabiiyki, didaktik o'yinlar jarayonida bolalardagi faollik turlicha bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan guruhdagi barcha bolalarning diqqatini bo'lmagan holda ulardagi faollikni saqlash, mashg'ulotlarda egallagan bilimlarini qayta tiklashga e'tibor qaratishni talab qiladi.

"Sholg'om" ertagi real xulosa chiqarish qobiliyatini o'stiradigan o'yinlardan biridir. Dars davomida o'quvchilarga ertak qahramonlari — muallif, bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk va sichqon rollari bo'lib beriladi. O'yin ertak mazmuni asosida davom etadi.

Bolalar ertakdagi so'zlarni kuchuk (kuchuk), mushuk (mushuk), chichqon (sichqon) kabi noto'g'ri talaffuz qiladilar. Ana shunday xatoliklarni bartaraf etish uchun bolalarga to'g'ri talaffuzni bir necha marta takrorlatish samara beradi.

Individual didaktik o'yin o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida bevosita munosabat o'rnatishga va ularning orqada qolish sabablarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bunda o'qituvchining quyidagi mantiqiy o'yin mashg'ulotlarini o'tkazishi maqsadga muvofiq:

1. O'qituvchi yoki o'quvchilardan birotasi bir so'z aytadi, bolalar ana shu so'zga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli so'z topadi. Masalan: mosh-tosh, baland-past.
 2. O'qituvchi yoki tarbiyachi bolalarga ko'ptok otadi. Masalan, ko'ptok otayotganda o'qituvchi anor desa, o'quvchilar (oxirgi harfiga moslab) rom-tom, mosh-tosh, uch-o'ch, uy-o'y kabi so'zlarni topib, aytishi kerak.
 3. Har bir bola stol ustida turgan rasmlardan bir-biriga nomlari yaqin bo'lganini topib, topshirishi kerak.
- O'quvchilar bunday bir-biridan ajratib aytiladigan so'zlarni tez topish va aytish orqali ularni talaffuz qilishni, matn orasida kelganda farqlashni o'rganadi.

Yulduz IBROHIMOVA,
Pitnak shahridagi
9-maktab o'qituvchisi

Yoz — 2019

Yozgi ta'til "Kamalak" bilan maroqli o'tmoqda

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Xo'jayli tumani kengashi tomonidan "Yozni "Kamalak" bilan" loyihasi doirasida qator tadbirlar tashkil etilmoqda.

— Bu tadbirlardan asosiy maqsad, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni turli to'garaklarga jalb qilishdan iborat, — deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Xo'jayli tumani kengashi yetakchi mutaxassisi Azina Ilmuratova. — Jumladan, tuman markazidagi "Turon" madaniy dam olish bog'ida yoshlar sayillari, rasmlar galereyasi, kitobxonlar bilan uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida stol tennisi, qo'l jangi, shashka musobaqalari tashkil etildi. G'oliblar tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi. Yosh qo'shiqchilar va raqqosalar ijrosidagi konsert dasturi namoyish etildi.

Tadbir ishtirokchilari "Murta-



zobiy" mahalla fuqarolar yig'ini hududida istiqomat qiluvchi, uy sharoitida ta'lim olayotgan Jayrona Yusupboyevaning holidan xabar olishdi, unga turli mavzudagi kitoblar sovg'a qilindi.

"Yozni "Kamalak" bilan" loyihasi doirasidagi bunday tadbirlar Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha shahar va tumanlarida tashkil etilmoqda.

Dovud ABIBULLAYEV,
O'ZA muxbiri

Yuzlab dissertatsiyalar yoqlanadi, biroq yangi sanoat yoki fan tarmog'i yaratilgani to'g'risida xabarlar ko'zga tashlanmaydi.

Fikr, mulohaza, taklif

Ilmiy unvonlar berishda OAK aralashuviga chek qo'yish kerak

Shu yil 31-may kuni Milliy matbuot markazida Oliy attestatsiya komissiyasi rahbariyati tomonidan o'tkazilgan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish choralari" mavzusidagi matbuot anjumanida mazkur tizimda kutilayotgan o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Unga ko'ra, ilmiy unvonlar berishni oliy ta'lim muassasalari (OTM) va ilmiy-tadqiqot muassasalari (ITM) ixtiyoriga o'tkazish, doktoranturada chet tilidan malakaviy imtihon olishni bekor qilish, dissertatsiyalarni *Ziyo.net* va OAK veb-saytlariga joylashtirish, dissertatsiyalar natijalarining impact faktori, retsenziya qilinadigan xalqaro jurnallarda chop etilishini yo'lga qo'yish hamda OAK va ilmiy kengashlar orasidagi yozishmalarni elektron hujjat aylanish tizimi orqali amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bu xususda bir necha mulohaza va takliflar bildirishni joiz deb topdim. *Birinchidan*, ilmiy unvonlar berishni allaqachon OTM va ITM ilmiy kengashlari ixtiyoriga o'tkazish kerak edi. Chunki haqiqiy vaziyatni chuqur o'rganmasdan OAK tomonidan OTM taklifini qaytarish holatlari uchrab turadi. Buni OTMning o'zida professor unvoni OAK tasdiqlaganlarni o'zaro solishtirish natijasi ham yaqqol ko'rsatadi. Bir necha falsafa doktori (fan nomzodi) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlaganlarning ilmiy ishiga rahbarlik qilgan, ammo professor unvoniga OAK tomonidan tasdiqlanmaganlar bilan bir qatorda, birorta oliy toifali mutaxassis tayyorlamagan bo'lsa-da, OAK tasdiqlagan professorlar mavjud. Professorlikka nomzodlarni davlat grantlari bo'yicha bajarilayotgan ishlarda oldin qatnashgan-u, hozir qatnashmayotgani yoki darslik muallifi emasligi sabab OAK rad etgan holatlar ko'p uchraydi. Shuning uchun ilmiy unvonlar berishni OTM ilmiy kengashlari ixtiyoriga o'tkazishni tezlatib, jarayonga OAKning aralashuviga chek qo'yish kerak.

Ikkinchidan, OAKning professor unvonini falsafa doktori (fan nomzodi) (13-modda) va fan doktriga (12-modda) berish talablari qariyb bir xil. Farqi — falsafa doktriga d band bo'yicha 2 nafar magistrga ilmiy rahbarlik qilish va j band bo'yicha 3 ta o'quv qo'llanmasi nashr ettirish talabi qo'shimcha qilingan. Bu doktorlik dissertatsiyasini yoqlamay, professor unvonini olishga intiluvchilar sonining ko'payishi va fan rivojlanishining susayishiga olib keladi.

Uchinchidan, dissertatsiyalar natijalarining impact faktori, retsenziyalari jurnallarda chop etilishini talab qilish o'rinlimikan? OAK mas'ul xodimi Eldor Bozorov bergan ma'lumotga qaraganda, bunday jurnallar bilan OAK shartnoma tuzgan. Shartnoma nima uchun kerak?

Dissertant bitta maqolani chop ettirish uchun bu jurnallarga 100 AQSh dollari atrofida pul to'lar edi. Agar o'tgan yillarda ming nafar dissertan-

Qay yo'sinda salom berilishidan qat'i nazar, alik olish lozim. Agar xat-xabarda salom berilgan bo'lsa, iloji bo'lsa, yozma ravishda alik olinadi, iloji bo'lmasa, og'zaki tarzda, g'oyibona alik olish kerak. Birov orqali salom yetkazilgan bo'lsa, unga ham alik olish vojibdir.

Irodabonu AVVALBOYEVA

Minglab salomim aliksiz qolib ketgan. Buni o'zim bilaman, xolos. Shuning uchun hech kimga salom bergim kelmaydi, — deb e'tiroz bildirdi yigitcha dakki bergan onasiga.

Qisqa o'ylash foydalimi yoki?..

E'tibor berganmisiz, so'nggi paytlarda yoshlarning quntsizligi, sarbsizligi, darslarni yaxshi o'zlashtirmayotganidan ko'p noliymiz. Nega yoshlar bugun o'qigan ma'lumotlarining aksariyatini tez unutmoqda? Shu haqida obdon o'ylab ko'rganmisiz? To'g'ri, bu ancha mushkul. Chunki chuqurroq mushohada qilishga vaqtimiz yo'q!

Tan olish kerakki, yashash darajamiz, fikrlashimiz oshgani sayin bizda qunt, hafsala degan tushunchalar kamayib borayotgandek. Sabr va shijoat bilan diniy va dunyoviy ilmlarni puxta o'zlashtirgan, jahon tamadduniga hissa qo'shgan qomusiy ajdodlarning bugungi avlodlari soatlab kitob o'qishga, dars qilishga qunt topolmayapti. Nega?

Miyamiz yalqovlashyapti(mi?)

Bu holat bugun birdan paydo bo'lib qolgani yo'q, albatta. Uddaburon g'arbliklar bu jarayonga ham ilmiy tus berishga ulgurishgan: "Qisqa o'ylash" (клиповое мышление). Bu termin o'tgan asrning 90-yillarida paydo bo'lgan. Inglizcha "clip" so'zi gazetadan qisqa joyini kesib olish, kino yoki videodan qisqa anons qilish degan ma'nolarni bildirar ekan. Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, qisqa o'ylash atrofda ma'lumotlarni detallarsiz, qisqa shaklda qabul qilishdir.

Bugun axborotlar shu qadar ko'pki, birini hazm qilib ulgurmasingizdan keyingisi ro'parangizdan chiqadi. Balki shuning uchun ham katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirishga vaqtimiz va potensialimiz yetmas. Tabiiyki, inson miyasi ham shunga moslashib, qisqa o'ylashga odatlanib borayotgandir. Oddiy misol, bog'cha yoshidagi bolangizga uzundan uzoq ertak o'qib bering-chi, u sizni oxirigacha tinglamikan? G'arb olimlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bugungi avlodni har bir axborotning faqat natijasi, kulminatsion nuqtasi qiziqtirar ekan. Ular uchun ertakni boshdan oyoq eshitib o'tirish shart emas, bunga sabrlari ham yetmaydi. Ma'lum bo'lishicha, bolajonlar uchun "Qizil qalpoqcha" ertagi sujeti-dagi qizaloqning bo'ri bilan uchrashib qolishi, bo'ringa qanday aldangani-yu boshqa epizodlar emas, aynan bo'ringa qornini yorib, buvisi qutqarilgan qismini eshitishgina yetarli ekan.

"Qisqa o'ylash" bizga nima beradi?

— Bugungi kunda bu tushuncha ko'proq yosh avlod vakillariga xos bo'lib bormoqda, — dedi psixolog Musaxon Muzaffarov. — Ular biror qarorga kelishdan oldin oqibatini batafsil o'ylamay xulosa chiqarishadi. Bu har doim ham yaxshi natija beravermaydi. Kattalar esa ulardan sabr-qanoatli, mulohazali bo'lishni talab qilishadi. Ikki avlod o'rtasida kelib chiqayotgan ziddiyatlarning bir ildizi mana shu muammoga borib taqaladi...

Qisqa o'ylash bizga favqulodda vaziyatlarda asqotishi mumkin. Aytaylik, zilzila yoki boshqa ofat yuz berganda zudlik bilan qaror qabul qilish insonga

omon qolishida yordam beradi. Bunday vaziyatlarda odam ikkilanmasdan xavfsizroq joyga qochish kerakligini anglab yetishi lozim. Lekin qisqa o'ylash jarayoni hammada ham birdek ijobiy natija beravermas ekan. Odamzod biror bosim yoki qiyinchilik bilan yuzlashsa-yu, tez qaror chiqarishi kerak bo'lsa, qisqa o'ylash kimnidir vaziyatdan muvaffaqiyatli olib chiqadi, kimningdir esa, aksincha, miyasini bloklay qo'yadi. Har yili o'tkaziladigan test jarayonlari bunga misol. Cheklangan vaqtda, qat'iy tartib-intizomda, olomonning g'ala-g'ovuri-yu ichki qo'rquv va hayajon ta'sirida har bir abituriyent testni turlicha yechib chiqadi. Kimdir bu ta'sirlarga chalg'ib, yillar davomida yiqqan bilimni ishlata olmasa, kimdir bosim ostida savollarga yaxshi javob yozolganini ta'kidlaydi.

Gajetlarsiz sakkiz soat

Rossiyalik pedagoglar qiziq tajriba o'tkazishgan. 12—16 yoshdagi o'smirlarni katta zalda to'plab, ularga sakkiz soat davomida hech qanday gajetlardan foydalanmasdan o'tirishni topshirishgan. Natijada 65 nafar o'quvchidan atigi uch nafari 8 soatgacha biror texnikani ishlatmasdan o'tira olgan. Bular ikki o'g'il va bir qiz bola. O'g'il bolalarning biri bu vaqt davomida qog'ozdan kema yasab o'tirgan, ikkinchisi rasm chizish bilan ovora bo'lgan. Qiz esa tajriba tugaguncha his qilgan kechinma va taassurotlarini qog'ozga tushirish bilan o'zini chalg'itgan. Yana 7 nafar o'quvchining uzog'i bilan besh soatga, qolganlarning esa undan ham kam vaqtga sabri yetgan. Eng qizig'i, telefonidan foydalanishga ruxsat etilganidanoq ular o'zlarini shiddat bilan texnikaga urishgan. Kimdir darrov internet tarmog'iga ulangan bo'lsa, boshqasi qulog'iga quloqchinni ilganicha musiqa tinglashga kirishib ketgan. Tadqiqotchilar esa o'sib kelayotgan avlod zamonaviy texnikalarsiz yashay olmasligini yana bir bor anglab yetishgan.

Yigirma yillik tajribaga ega rus psixologi Lyudmila Yasyukova o'tkazgan tajriba undan ham ajabtovur. U 6-7 yoshli bolalardan "Musicha, kaptar, qarg'a, chumchuq va o'rdak. Ularining qay bir qush emas?" deb so'ragan. Bolalarning barchasi o'ylab ham o'tirmasdan "O'rdak" deb javob bergan.

— Hatto bir safar qaysidir o'quvchining onasi men bilan bahslashib, o'rdak to'g'ri javob ekanini uqtirmoqchi bo'ldi. "Nimaga aynan o'rdak?", deb so'raganida hatto huquqshunos yoki o'qituvchi ota-onalar ham o'rdak yirik bo'lgani uchun qush emas, qushlar miti jonzoat deya javob qaytarishgan. Unda pingvinlar-chi? Ular kattaroq bo'lsa ham, ucholmasa ham qush-ku? Ongimizda qushlar miti bo'lishadi, degan fikr qotib qolganini mana shu oddiy so'rovnamaga ham tasdiqlaydi, — deydi u.

Ayrim yevropalik olimlar esa "Qisqa o'ylash yaxshimi yoki yomon?" degan savolga aniq javob topa olishmagan. Afsuski, qisqa o'ylashning ijobiy tomonlaridan ko'ra salbiy jihatlari ko'proqligini yuqoridagi kabi tajribalar tasdiqlaydi. Ba'zi G'arb mutaxassislari esa u diqqatni jamlay olmaslik, darslarni o'zlashtirishdagi qoloqlik, tahlil qilish qobiliyatining yo'qolishi, manipulyatsiyaga moyillik va beparvolik kabi oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi xavotirlarini bildirishmoqda. Eng yomoni shundaki, yosh avlod bu ketishda hissiz bo'lib qolishi ehtimoli yo'q emas. Ular internetdagi yangi ma'lumotni olgach, hatto hozir ro'y bergan fojiani 5 daqiqada unutib yuborishi hech gap emas ekan.

— Birinchidan, miya informatsiyani qabul qilar ekan, axborotning yolg'on yoki rost, asosli yoki asossiz ekaniga qarab o'tirmasdan tez-tez qayta ishlayveradi, — deydi Musaxon Muzaffarov. — Axborotning xolisligini tekshirib o'tirmasdan xotirada saqlab qolish esa ba'zi manipulyatsiya kuchlarining foydasiga ishlashi mumkinligini unutmashimiz kerak. Yana bir jihat. Kundalik hayotimizni internetsiz tasavvur qilolmaydigan darajaga yetdik. Virtual olam juda qiziq va qizg'in. Kadrlar tez almashadi, rasmlar turli-tuman, ma'lumotlar qisqa. Ularni qayta ishlashga kirishgan miya avtomatik tarzda tez ishlashni va qisqa o'ylashni boshlaydi. Ana endi telefoningizni bir chetga qo'yib, biror badiiy kitobni o'qishga harakat qilib ko'ring-chi, uzog'i bilan nechta sahifasini varaqlashga hafsalangiz yetar ekan. Na xilma-xil rasm, na tez harakatlanuvchi kadrlari bor badiiy asardagi uzundan uzoq matnlarni o'qishga tez ishlashni boshlagan miya ko'nika olmay qiynaladi. Natijada siz mudray boshlaysiz...

— Hozir kollej bitiruvchilaridan kelajakda kim bo'lmoqchisan deb so'rasangiz, universitetga kiraman, uni bitirib, katta biznesmen bo'lib, boyib ketaman deb javob berishadi, — deydi Toshkent iqtisodiyot kolleji bitiruvchisi Sardor G'aniyev. — Holbuki, o'sha maqsadlariga olib boradigan uzoq va mashaqqatli yo'l haqida gapirgilari kelmaydi. Hatto, o'ylashmaydi ham. Bu ham qisqa fikrlashning oqibatlaridan biri bo'lsa kerak...

Yoshlarning aksariyati muvaffaqiyatga olib boradigan o'nqir-cho'nqir yo'lni umuman tasavvuriga sig'dirishni xohlashmaydi. Buning oqibatida yengil pul topishga intilish, boy qizga uyalanib, tezda amalga va boylikka ega bo'lish, bir zunda millionerga aylanish ishtiyoqida turli qimorsifat o'yinlarga mukkasidan ketish kabi holatlar yuzaga kelmoqda.

Yechimni o'zingizdan qidiring

Shu soha bilimdonlari qisqa o'ylashning zararlardan qutulishning yo'lini faqat o'zimiz topa olishimizni aytmoqda. Bu borada ularning sinalgan bir qancha tavsiyalari ham bor.

Birinchii tavsiya: ko'proq badiiy kitob o'qib, eski filmlarni tomosha

qiling! Komikslar, internetdagi postlar, hatto texnika yangiliklari haqidagi videolarni emas, klassik adabiyotni o'qing. Albatta, mutolaaga birdan kirishish mushkul. Buni odatga aylantirguncha, kuniga 10—15 daqiqa o'qishdan boshlang. Keyin asta-sekin o'qish vaqtini uzaytirib borasiz. Va yana film tanlashda eskilariga murojaat qiling. Har holda ularda kadrlar bugungidek juda tez almashmaydi.

Ikkinchi tavsiya: kundalik taassurotlarni qog'ozga tushirish yoki esse yozing! Kundalik tutish bo'lib o'tgan voqealarni eslab qolish va tahlil qilishga yordam beradi. Boshlanishiga bir satr yozishdan boshlang. Keyin uni an'anaga aylantirish kerak. Uni badiiy qilib yozolmasangiz-da, qog'ozga tushiravering va ota-onangiz yoki do'stingizga ko'rsatishdan uyalming.

Uchinchi tavsiya: atrofdagi voqealarga befarq bo'lmang, tahlil qilishni o'rganing! Atrofdagi bo'layotgan jarayonlarga diqqat qiling va o'zgaral tushib qolayotgan vaziyatlarda o'zingizni tasavvur qiling. Aytaylik, o'qituvchi sizga "ikki" baho qo'ydi. Undan xafa bo'lishdan, oyingizga yomonlashdan oldin o'zingizga "O'qituvchining o'rnida men bo'lsam, qanday yo'l tutardim?" degan savolni bering. Bahslashish esa ko'proq kattalarda diqqatni bir joyga jamlashga yordam beradi. Faqat uni me'yordan oshirmaslik kerak...

Xulosa o'rnida...

Tasavvur qiling, bola dars qilish uchun stolga o'tiradi. Lekin u uyga vazifalarini bajarishga ketkazgan vaqtini faqat dars uchun sarflaydi, deb aniq ayta olamizmi? U bir vaqtning o'zida ham telefon titkilaydi, ham quloqchinda musiqa eshitadi, ora-orada televizorga ham qaraydi. Shu asnoda bir amallab darsini tugatadi. Bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyalarni bajarayotgan miya esa o'zi uchun oson yo'lni, ya'ni qisqa o'ylashni tanlab, shu tezlikda ishlay boshladi. Va yana achinarlisi, batafsil o'ylashga erinib, tobora yalqovlashib borayotgan miya fundamental bilimlarni samarali qabul qila olmaydi. Dilbandingizning dars qilishga, mutolaaga yoki biror hunar o'rganishga quntsizligiga faqat uning erinchoqligi, erkatoyligi va yana bizning nazdimizda "qiyinchilik ko'rmagani"-gina omil emas ekan. Ko'zimizni kattaroq ochaylik. Tengdoshlaridan kam bo'lmasin deb so'nggi rumumdagi qo'l telefonini, boshimni ko'p qotirmasin deb kompyuter o'yinlarini o'yinlashga ruxsatni berib qo'yib o'zimiz ularning ilmi olishdan chalg'ishlariga zamin yaratib bermayapmizmi? Balki bolani axborot makonidan uzib qo'yolmasmiz. Lekin o'z qo'rg'onimizdagi muhitni boshqarishga, miyani dangasalikka yetaklovchi vositalarni muayyan muddat kechlab qo'yishga kuchimiz va hafsalamiz yetar?! Maslahatimiz, bu xususda qisqa emas, batafsil o'ylang. Lekin tez fursatda xulosa qiling. Aks holda kech bo'lishi mumkin!

Sohiba MULLAYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim O'ZBEK tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun
2019-2020-o'quv yilida foydalanishga tavsiya etiladigan darsliklar
RO'YXATI

T/r	Darslik va o'quv qo'llanmalar nomi	Mualliflar	Nashr etilgan yili	Ta'minlanish holati
1-sinf				
1	Alifbe	R.Safarova va b.	2019	Bepul
2	Yozuv daftri	M.G'ulomov	2019	Bepul
3	Ona tili	T.G'afurova va b.	2019	Bepul
4	O'qish kitobi	T.G'afurova va b.	2019	Bepul
5	Matematika	M.Ahmedov va b.	2019	Bepul
6	Matematika daftri	M.Jumayev va b.	2019	Bepul
7	Atrofimizdagi olam	N.Mamadinova va b.	2019	Bepul
8	Tasviriy san'at	R.Hasanov	2019	Bepul
9	Musiq	H.Nurmatov va b.	2019	Bepul
10	Odobnoma	O.Hasanboyeva va b.	2019	Bepul
11	Texnologiya	I.Maturova va b.	2019	Bepul
12	"Kids' English"	M.Ibratqulov va b.	2019	Bepul
13	"Deutsch mit Spaß"	M.Daxodjayeva va b.	2019	Bepul
14	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2019	Bepul
2-sinf				
1	Ona tili	K.Qosimova va b.	2018	Ijara
2	O'qish kitobi	T.G'afurova va b.	2018	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Z.Abduraimova	2018	Ijara
4	Matematika	N.Abduraimova va b.	2018	Ijara
5	Atrofimizdagi olam	P.G'ulomov va b.	2018	Ijara
6	Odobnoma	O.Hasanboyeva va b.	2018	Ijara
7	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2018	Ijara
8	Musiq	H.Nurmatov va b.	2018	Ijara
9	Jismoniy tarbiya	K.Mahkamjonov va b.	2018	Ijara
10	"Kids' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
11	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Daxodjayeva va b.	2018	Ijara
13	"Arbeitsheft"	M.Daxodjayeva va b.	2019	Ijara
14	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2018	Ijara
15	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
16	Texnologiya	X.Sanikulov va b.	2018	Ijara
3-sinf				
1	Ona tili	S.Fuzilov va b.	2019	Ijara
2	O'qish kitobi	M.Umarova va b.	2019	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	N.Sergeeva va b.	2019	Ijara
4	Matematika	S.Burhonov va b.	2019	Ijara
5	Tabiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2019	Ijara
6	Odobnoma	M.Xoligova va b.	2019	Ijara
7	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2019	Ijara
8	Musiq	H.Nurmatov va b.	2019	Ijara
9	"Kids' English"	S.Xan va b.	2017	Bepul
10	"Workbook"	M.Daxodjayeva va b.	2019	Ijara
11	"Deutsch mit Spaß"	M.Daxodjayeva va b.	2017	Bepul
12	"Arbeitsheft"	M.Daxodjayeva va b.	2019	Ijara
13	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2017	Bepul
14	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
15	Texnologiya	X.Sanikulov va b.	2019	Ijara
4-sinf				
1	Ona tili	R.Ikromova va b.	2017	Ijara
2	O'qish kitobi	S.Matichonov va b.	2017	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Karinova va b.	2016	Ijara
4	Matematika	N.Bikbayeva va b.	2017	Ijara
5	Tabiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2017	Ijara
6	Odobnoma	M.Xoligova va b.	2017	Ijara
7	Musiq	O.Ibrohimov	2017	Ijara
8	Texnologiya	I.Mannopova va b.	2017	Ijara
9	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
10	"Kids' English"	S.Xan va b.	2016	Bepul
11	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Daxodjayeva va b.	2016	Bepul
13	"Arbeitsbuch"	M.Daxodjayeva va b.	2019	Ijara
14	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2016	Bepul
15	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
16	Jismoniy tarbiya	K.Mahkamjonov va b.	2017	Ijara
5-sinf				
1	Ona tili	N.Mahmudov va b.	2015	Ijara
2	Adabiyot (1-2-qism)	S.Ahmedov va b.	2015	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Y.Musumonova	2016	Ijara
4	"New Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2017	Bepul
5	"Deutsch"	Z.Kiyomova va b.	2017	Bepul
6	"Je parle français"	A.Nosirov va b.	2017	Bepul
7	Tarixdan hikoyalar	U.Jo'rayev va b.	2015	Ijara
8	Matematika	B.Haydarov	2015	Ijara
9	Botanika	O'.Pratov va b.	2015	Ijara
10	Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi)	P.G'ulomov va b.	2015	Ijara
11	Informatika	D.Kamolitinova	2016	Ijara
12	Vatan tuyg'usi	X.Salomonov va b.	2015	Ijara
13	Musiq	A.Mansurov va b.	2015	Ijara
14	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2015	Ijara
15	Tasviriy san'at	T.Qo'ziyev va b.	2015	Ijara
16	Jismoniy tarbiya	T.Usmoxov'jayev va b.	2015	Kutubxona fondi
17	Matematika (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	M.Mirzashmedov va b.	2016	Ijara
6-sinf				
1	Ona tili	N.Mahmudov va b.	2017	Ijara
2	Adabiyot (1-2-qism)	S.Ahmedov va b.	2017	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	G.Gaslova va b.	2017	Ijara
4	"Tears' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
5	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2018	Ijara
6	"Voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2018	Ijara
7	Tarix qadimgi dunyo	A.Sagdiyev va b.	2017	Ijara

8	Matematika	M.Mirzashmedov va b.	2017	Ijara
9	Fizika	N.Turdiyev	2017	Ijara
10	Biologiya (Botanika)	O'.Pratov va b.	2017	Ijara
11	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Boltayev va b.	2017	Ijara
12	Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografyasi)	A.Soatov va b.	2017	Ijara
13	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
14	Musiq	S.Begmatov	2017	Ijara
15	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
16	Tasviriy san'at	Q.Mirahmedov va b.	2017	Ijara
17	Jismoniy tarbiya	T.Usmoxov'jayev va b.	2015	Kutubxona fondi
18	Matematika (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	G.Nasritdinov va b.	2016	Ijara
19	Fizika (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	N.Turdiyev	2019	Ijara
7-sinf				
1	Ona tili	N.Mahmudov va b.	2017	Ijara
2	Adabiyot	Q.Yo'ldoshev va b.	2017	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slimbekova va b.	2017	Ijara
4	"Fly High English"	S.Xan va b.	2019	Ijara
5	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2019	Ijara
6	"Bon voyage"	S.Umarova va b.	2019	Ijara
7	O'zbekiston tarixi	A.Muhammadjonov	2017	Ijara
8	Jahon tarixi	T.Salimov va b.	2017	Ijara
9	Algebra	Sh.Alimov va b.	2017	Ijara
10	Geometriya	A.A'zamov va b.	2017	Ijara
11	Fizika	P.Habibullayev va b.	2017	Ijara
12	Kimy	L.Asqarov va b.	2017	Ijara
13	Biologiya (Zoologiya)	O.Mavlonov	2017	Ijara
14	Geografiya (O'rta Osiyo tabiiy geografyasi, O'zbekiston tabiiy geografyasi)	P.G'ulomov va b.	2017	Ijara
15	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
16	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
17	Musiq	O.Ibrohimov va b.	2017	Ijara
18	Jismoniy tarbiya	T.Usmoxov'jayev va b.	2017	Kutubxona fondi
19	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	M.Qarashboyev va b.	2015	Ijara
20	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Boltayev va b.	2017	Ijara
21	Algebra (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	M.Mirzashmedov va b.	2019	Ijara
22	Fizika (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	N.Turdiyev	2016	Ijara
8-sinf				
1	Ona tili	M.Qodirov va b.	2019	Ijara
2	Adabiyot	S.Olimov va b.	2019	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Rojnova va b.	2019	Ijara
4	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
5	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2014	Bepul
6	"Le nouveau voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2014	Bepul
7	O'zbekiston tarixi	U.Jo'rayev va b.	2019	Ijara
8	Jahon tarixi	A.Farmonov va b.	2019	Ijara
9	O'zbekiston davlati va xalqi asoslari	O.Karimova va b.	2019	Ijara
10	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
11	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
12	Geometriya	A.Rahimqoriyev	2019	Ijara
13	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
14	Kimy	L.Asqarov va b.	2019	Ijara
15	Biologiya (Odam va uning salomatligi)	O.Mavlonov va b.	2019	Ijara
16	Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografyasi)	P.Musayev va b.	2019	Ijara
17	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	R.Qo'chqor va b.	2015	Ijara
18	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Boltayev va b.	2015	Ijara
19	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
20	Algebra (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	M.Mirzashmedov va b.	2019	Ijara
21	Texnologiya	O'.Tohirov va b.	2019	Ijara
22	Fizika (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	N.Turdiyev	2016	Ijara

9-sinf				
1	Ona tili	N.Mahmudov va b.	2019	Ijara
2	Adabiyot	Q.Yo'ldoshev va b.	2019	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	R.Umanova va b.	2019	Ijara
4	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
5	"Deutsch"	M.Daxodjayeva va b.	2014	Bepul
6	"D'un Etat à l'autre"	S.Rahmonov va b.	2014	Bepul
7	O'zbekiston tarixi	S.Tilaboyev va b.	2019	Ijara
8	Jahon tarixi	M.Lafasov va b.	2019	Ijara
9	Konstitutsiyaviy huquq asoslari	G.Tansiqboyeva va b.	2019	Ijara
10	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
11	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
12	Geometriya	B.Haydarov va b.	2019	Ijara
13	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Boltayev va b.	2015	Ijara
14	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
15	Kimy	L.Asqarov va b.	2019	Ijara
16	Biologiya (sitologiya va genetika asoslari)	A.Zikriyayev va b.	2019	Ijara
17	Geografiya (Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografyasi)	A.Qayumov va b.	2019	Ijara
18	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	O.Musumonova va b.	2015	Ijara
19	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
20	Algebra (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	G.Nasritdinov va b.	2016	Ijara
21	Texnologiya	Z.Sattorova va b.	2019	Ijara
22	Fizika (Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari uchun)	N.Turdiyev	2016	Ijara
10-sinf				
1	Ona tili	N.Mahmudov va b.	2017	Ijara
2	Adabiyot	B.To'xtiyev va b.	2017	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slimbekova va b.	2017	Ijara
4	"English"	F.Rashidova va b.	2017	Bepul
5	"Deutsch"	Sh.Imyaminova va b.	2017	Bepul
6	"France"	Z.Davronova va b.	2017	Bepul
7	O'zbekiston tarixi	Q.Rajabov va b.	2017	Ijara
8	Jahon tarixi	Z.Ergashev va b.	2017	Ijara
9	Dunyo dinlari tarixi	Z.Isomov va b.	2017	Ijara
10	Davlat va huquq asoslari	V.Kostetskiy	2017	Ijara
11	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2017	Ijara
12	Matematika (algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzashmedov va b.	2017	Ijara
13	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Tayloqov va b.	2017	Ijara
14	Fizika	N.Turdiyev va b.	2017	Ijara
15	Organik kimyo	A.Mutalibov va b.	2017	Ijara
16	Biologiya	A.G'afurov va b.	2017	Ijara
17	Geografiya (Amaliy geografiya)	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
18	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Sh.Ubaydullayev va b.	2017	Ijara
11-sinf				
1	Ona tili	N.Mahmudov va b.	2018	Ijara
2	Adabiyot	B.To'xtiyev va b.	2018	Ijara
3	Pyecckii xazak (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Slimbekova va b.	2018	Ijara
4	O'zbekiston tarixi	N.Jo'rayev va b.	2018	Ijara
5	Jahon tarixi	Z.Ergashev va b.	2018	Ijara
6	Dunyo dinlari tarixi	Z.Isomov va b.	2018	Ijara
7	Davlat va huquq asoslari	N.Ismatova va b.	2018	Ijara
8	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2018	Ijara
9	Tadbirkorlik asoslari	U.G'afurov va b.	2018	Ijara
10	Matematika (algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzashmedov va b.	2018	Ijara
11	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Tayloqov va b.	2018	Ijara
12	Biologiya	A.G'afurov va b.	2018	Ijara
13	Astronomiya	M.Mamadazimov	2018	Ijara
14	Fizika	N.Turdiyev va b.	2018	Ijara
15	Umumiy kimyo	S.Masharipov va b.	2018	Ijara
16	"English"	F.Rashidova va b.	2018	Ijara
17	"Deutsch"	Sh.Imyaminova va b.	2018	Ijara
18	"Libre opinion"	M.Jo'rayeva va b.	2018	Ijara
19	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Sh.Ubaydullayev va b.	2018	Ijara

Jo'ramga maktub

Salom, jo'ra. Omonmisan?

Meni qo'y, o'zingdan gapir. Qishloqlar tinchi-mi? Bormaganimgayam ancha bo'ldi. Shaharning tang ko'chalari bepoyon dashtlar ulg'aytgan ko'nglimdan sog'inch, mehr-u oqibatni siqib chiqardi-yov. Ko'nikib qoldim. Borgandayam ikki-uch kunda safarim qariydi. "Ketaman"ga tushib qolaman...

Maktab paytlarimiz esingdami? Sen do'xtir bo'laman, derding, harakatlaring ham shunga mutanosib edi. Turli qushlar, mitti jonzo'tlar ustida o'tkazgan "jarrohiya amaliyot"laringda istab-istamay yordamchi bo'lardim.

Ali qora ikkovimizga kun bermas, jussasi yirik, bizdan ikki-uch sinf katta bo'lgani uchun doim kaltak yerdik. O'sha paytlar ham mardlik bor edi. Kuching boricha surisharding. G'olibona qadam tashlab ketayotgan "qora" bizdan ancha uzoqlashgach, orqasidan "Katta bo'lsak, ko'rasan!.." deb so'kingancha qochib qolardik. Mana, ulg'aydik ham. Ali aka endi bizga "dushman" emas, davraboshi. Borganimda yig'inlarimiz usiz o'tmaydi. Kelay qolsa, darrov o'rni bilinadi. O'sha paytlar urib xumordan chiqsak, derdik. Endi esa uning do'ppostlashlarini sog'inamiz...

Oxirgi soat adabiyot darsi. Ikkov o'yinga berilib, Muso Jalilning she'rini yodlamay borgan kunimiz edi. Uyga vazifasini topshirgan sinfdoshlar kundaligiga qo'yilgan "besh"ga "egar urib", birin-ketin uylariga jo'nadi. Hayhotdek sinfonada ikkimiz va ko'zoynagi osha bizga asabiy termulib turgan malimdan boshqa hech kim yo'q. Behuda iltimos-u, "boshqa qaytarilmaydi"lardan so'ng sinfonaga cho'kkan sukunatni Almatov buzdi:

— Aytgandim-ku, uyga vazifani topshirganga javob yo'q, deb. Yodlamagan bo'lsang, endi yodlaysan. "Senga mendan xabar bersalar...". Qani, qaytar!

Ustozning do'rilloq ovozigga ergashib takrorlaymiz. Garchi uyga vazifa topshirish gardaniga yuklanmagan bo'lsa-da, tashqarida kuchayib borayotgan yomg'irning sasiga hamohang sinf-xona devorlari ham bizga jo'r bo'ladi:

— "U yiqildi charchab osalar..."

...Va nihoyat, she'rni yod o'qib berdik. Bahorning ilk kunlari. Darslarimiz tushdan keyin bo'lgani bois, tashqariga chiqqanimizda kech tushib qolgan, yomg'ir hamon shig'alab yog'ardi. Havoning kayfiyatiga mos Almatovning boyagi tund chehrasi endi ancha yorishgan.

— Mana, bo'larkan-ku, dangasalar! Malimning o'zi yodlatadi, deb keyingi safar ham so'ppayib kelmanglar yana, — deydi yelkamizga qoqib.

— Qizlarga yaxshi ko'rinaman deb ikkoving ham yupqa kiyinib kelibsan-da, shamollab qolasizlar-ku. Mana, mening kurtkamni yopinib olinglar. Uylaringga tashlab o'taman. Akalaring (malim o'zining o'g'illarini nazarda tutaypti) bari o'qishda, mol-holga qarash kampir ikkovimizga qolgan. Bir o'zi qaynayotgandir. Qani, chaqqon-chaqqon yuringlar...

Almatovga bilintirmay qulog'ingga shipshiyman:

— Jo'ra, tamommiz! O'zimiz ketamiz, deganimizga ko'nmadi. Endi otamga borib "Uling maktabda yaxshi o'qimaydi. Bir tergap qo'y!", deb aytishi aniq.

— Men ham shundan qo'rqayman, — deyisan xavotirinni battar oshirib.

Adir oralab ketgan yolg'izoyoq so'qmoqqa buriladi. Demak, biznikiga birinchi boradi. To uyga yetguncha Almatovning gaplari qulog'imga kirmadi. Seni bilmadim-u, men o'zimni otamning yonida turgandek tasavvur qilib, ming xil bahona to'qidim: "Kecha boshim og'rigandi...", "Jo'ram kitobimni olis ketgandi...",

"Almatov malim yaxshi dars o'tmaydi. Shunga uyga vazifalarni tayyorlamay bordim...". Oxirgi bahonam sal mantiqliroq tuyuldi.

O'zing ayt, jo'rajon, qanday qilib otamga "Kuni bilan futbol o'ynadim, dars qilishga vaqtim bo'lmadi", deyman.

Uyga yetgach, xavotirlarimiz behuda bo'lib chiqdi. Otamning yonida meni qanday maqtatgani yodingdami? Hatto otam "Muncha kech qoldinglar?" deganda, she'r yodlatganini ham aytmadim-ya.

— Sinfxonani sal tartibga keltirish kerak edi. Polvonlarga yordam beringlar, dedim. Shunga ozroq ushlanib qoldik...

O'sha payt ko'zimdagi yoshni zo'rg'a tiyib turganimni sezgandirsan. Yo'lda xayolimga kelgan fikrlarni eslab, o'zimdanda nafratlanib ketdim. Jo'ra, shunday ustozlarning poyiga bir umr bosh urib o'tsa ham, birovning haqqi ketib qolmaydi.

Maktabni bitirib qo'shni qishloqdagi kollegaga bording, men esa shaharga. Yelkangga erta tushgan hayot tashvishlari qalbingdagi orzularga joy qoldirmadimi, o'qishni davom ettirmading. Bolaligingdan qishloqning podasini boqasan, tok parvarishi, qurilish, xullas, o'zing o'ylab topgan "Jon — bevafo. Shuning uchun bu jonni qynab o'ldirish kerak", degan naqlga amal qilib, tinmayman.

Rossiyaga ketdi, deb eshitganimga ko'p bo'lmay, "Jo'ra, men keldim", deb qo'ng'iroq qilding. "Tinchlikmi?", desam, "Ha, ozroq mazam bo'lmadi", deding. Keyinchalik sinfdoshlardan sarguzashtingni eshitdim. Zavodda yaxshi ishlayotgan ekansan. Ijara uyingga qaytayotib, yo'lda bir ayolni haqoratlayotganlariga ko'zing tushgan. Bezorilarning ko'pligiga qaramay, oraga tushib mushlatlagansan... Shu bilan sayohat tamom.

— Nima qilasan, tanimagan-bilmagan odamlarning ishiga aralashib. Tinchgina yursang bo'lmaydimi? "U musofir o'zbek ayoliga o'xshardi. Jim o'tib ketsam, keyin qanday qilib o'zbek degan nomni ko'tarib yurardim? Mil-latodoshim bo'lgan taqdirida ham kimningdir opasi, kimningdir singlisi edi u... Nima bo'lganda ham qaytib kelganim yaxshi bo'ldi. O'z uying — o'lan to'shaging. Vatan nima ekanini shu yoqlarga borib tushundim. Menga shu qishloq, shu odamlar, shu soy-u tog'lar... Suruvim yetib boradigan jamiki joylar — Teshiktovdan Qorabuloqqacha — hammasi Vatan ekan. Men bularsiz yashayolmayman", deysan ko'zlarimga ma'yus termulib.

Vatan, millatparvarlik haqida so'zga chechan professorlarning ma'ruzasini soatlab eshitganman. Lekin ularning hech biri sening mana shu ega-kesimi qovushmagan gaplaringchalik ko'nglimga ta'sir etmagan...

Qishki ta'til boshlanib, kechki avtobusda uyga qaytdim. Shu payt sen ham suruvim qishloqqa endirayotgan ekansan. Meni ko'ribog' yugurib kelib, doimgidek bag'ringga mahkam bosding. Men esa yangi kostyumimni avaylayman. Yuzlarimga shaharning nuqsi urgan. Tilimni ham burab-burab gapiraman.

— O'zimizning shevada tortinmay gapiraver. Kulmayman, — deysan hazil aralash kinoya bilan menga shahar shevasi yarashmaganini ilg'ab.

Ha, ancha o'zgardim. Yurish-turishim, gapirishim... KO'NGLIM. Sen o'sha o'shasan. Sen bilan suhbatlashsam, men ham o'zinga qaytgandek bo'laman. Yo'qolib ketma. Xayollarimga shunday mehmon bo'lib tur.

Bolaliking o'zi ko'z yumib-ochguncha o'tib ketdi. Lekin undan qolgan shirin xotiralar qalb-larda mangu yashar ekan. Goho tunlar bostirib kelib, ko'zimdan uyquni haydaydi. Ana qishloq, ana sen... qanday tong otganini bilmay qolaman...

Vog'ea

"Tajribali" abiturient

— O'qishga topshirmoqchimisani?

— Ha-da, kam bo'lmang, shopir aka, imtihonga ketyapman. Bu Tashken deganlari qo'shni qishloq bo'lsa ekan, g'ir etib borib kelsang. Yo'l uzoq, ish ko'p. Qo'yinga qara, molga qara deganday... Shu bahona bormasak, qachon borib yotibmiz.

Har yoz safarxaltani yelkaga osib, imtihon topshirgani Toshkentga jo'naman. Uch-to'rt yillik "staj" bor. Otam "O'qisang, odam bo'lasan", deydi. Birinchi yili borganimda rosa qidirdim "Odam bo'lishga o'qitamiz" degan joy qayerda ekan, deb. Topolmadim uying kuygurni. Shu desangiz ozroq san'at bor. She'r-per yozib turaman. Keyin shoirlikka o'qitadigan joyni izladim. Aksiga olib u ham yo'q. Taqdirga tan berib, endi uyga jo'naman deb turganimda, yo'lda siz tengi, bo'yinbog' taqqan bir odamni uchratib qoldim. Kel, shu o'qimishlarga o'xshaydi-yov, shundan bir maslahat olay, qishloqqa qaytish qochib ketmas, deb gapga tutdim. Asli o'zimizga o'xshagan qishloqning odami, o'qishni bitirib, shu yoqlarda qolib ketgan ekan. Unga boshdan o'tkazgan sarguzashtlarimni gapirib berdim.

— Uka, sen aytayotgan o'qish bu yerda yo'q. Izlab ovora bo'lma. She'r yozaman deding. O'zbek tili va adabiyoti universitetiga topshir. Shoirlikka yaqinroq, — deb maslahat berdi haligi kishi.

— Borakansiz-ku, aka! — qichqirib yubordim quvonganimdan. — O'qishga kirsam, bitta qo'y mendan.

Qirg'yillik qadrdondak quyuq xayrlashganimdan so'ng, u ko'rsatgan yo'l bilan "hayo-hayt" deb til-adabiyot o'qishiga ravona bo'ldim. Keta-keta Oysananga ich-ichimdan rahmatlar aytaman. Shu Shodi garangning qizini yaxshiyam sevibman. U ham va'dalar berib, bozoroq'mning bolasisga tegib ketgani yaxshi bo'lgan ekan. Shundan keyin yuragim kuyib she'r yozdim-da. Xudoning har ishida hikmat bor deydlar-ku. Bo'lmasa, so'ppayib qishloqqa qaytgan bo'lardim...

Hujjatni topshirdik, "Falon kuni kelasiz", deb qo'limga bir qog'oz berishdi. So'ng quvonib uyga keldim. Otam ham xursand.

— Endi, ulim, Bektosh jiyaning oldiga bor. Ko'p o'qigan. U-bu narsa o'rgatadi, — deb qo'yarda-qo'ymay qo'shni qishloqqa — ammannikiga jo'natdi otam.

Bektoshvoy ham ko'rttaga qildimi, bilmayman, otamning gapini aytar-aytmassimdan meni kitobga ko'mib tashladi. O'zi kitobni varaqlaganda uyquisi keladigan odamman. Imtihonga ham yigirma kun qoldimi-yo'qmi, shuncha kitobni qanday o'qib tugataman.

— Peshonamga miltiq tirasang ham, buncha kitopni o'qiyolmayman. Bo'ladiganini ko'raylik, — deb gapning ochig'ini aytdim.

Jiyan ham tushunadigan bola. Men imtihonga amallab telefon olib kiranman. U savollarning javobini aytib turadi. Shunga kelishdik...

O'ziyam sakkiz joyda tekshirdimi, bilmayman. Goh qo'lidagi matoh bilan chiyillatib ko'radi, goh o'zimi, yo'qmi deb pasportga qaraydi. Xullas, rosa tit-pitimni chiqarishdi. Lekin botinkamga mohirona joylashtirilgan telefonni topisholmadi, uying bug'doyga to'lgurlar. Endi amallab ishlatolsam bo'ldi...

— Beki, alooo eshityapsanmi? Birinchi savol: quyidagi bitishuvli so'z birikmalari ishtirok etgan ega ergash gapli qo'shma gaplarda metafora usuli bilan ma'no ko'chgan so'zlar tarkibidagi ot yasovchi qo'shimchasi tushum kelishigi bilan omonim bo'lgan yasa-ma so'zlarning oxirgi bo'g'inidagi metatezaga uchragan tovushlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra taqsimlanishini to'g'ri ko'rsating.

— A-aaa?

— "A" javobmi? Yaxshi! Unda ikkinchisini o'qiyman. Ikkinchi savol: Qaysi yozuvchining, qaysi asarida "Eshik ochildi", degan jumla mavjud?

— A-aaa?

— Bunisiyam "A"mi?... Yaxshilab eshit, oxirgisi...

— A-aaa? Gaplaringni umuman eshitmayapman, nimalar deyapsan? —!

Xullas, reja tuzayotgan payt biz tomonlarda aloqa yaxshi emasligini hisobga olmagani ekanmiz. Uyog'i o'zingizga ma'lum...

— Shopir aka, oynangizni ozroq tushiring, nafas qaytapti. Ha, baraka toping. Endi "Karvon ko'rdim"dan bitta bo'lsa, zo'r bo'lardi. Ana, yashang. "Do-o'od!". Peshonaangga-aaa yozganidaaay ayrilma, yo-or. Joonim chiqaar qo'shiq aytсам, qayrilma, yoooor. Nana, nana, nananay...

Shu desangiz, omad deganlarining arpasini xom o'rganmanmi, bilmayman. Keyingi yili Abdurayim mulla yozib bergan allaqanday baxt keltiruvchi duoni o'qiyman deb qo'lga tushdim. Shpargalka ishlatding, deb imtihondan chiqarib yuborishdi. Yana shu ahvol. Qishloqda ham bosh ko'tarolmay qoldim. Biror joyga chiqsam, to'g'ri yo'l qolib, qir aylanib boram. Oxiri, boree deb ikki-uchta qo'yning bahridan o'tib, repetitorga bordim. Mana, yana kelyapman. Shunaga gaplar, aka. Iya, gap-gap bilan bo'lib Toshkentga ham kelib qolibmiz-ku! Endi, aka, bir duo bering. Ko'pning duosi — ko'l. Shu yil maqsadimga yetay.

Humoyun QUVONDIQOV

Chempionlik sari odimlar

Yoshlarimizning so'nggi yillarda sportda erishayotgan yutuqlarini ko'rib ich-ichimdan quvonaman. Otgan yoyi Asqartog'ning bir cho'qqisini qulatgan Alpomish, Qalmoqning Ko'kamanday polvonini yelkasidan oshirib yerga urgan Barchinoyning qoni tomirlarida jo'sh urayotgan avlod davridan boshi egik chiqadimi axir? Qadamidan o't chaqnab, sport to'garagiga shoshayotgan yigit-qizlarni yurtimizning istalgan hududida uchratishingiz mumkin. Ulardagi o'ziga bo'lgan ishonch, shijoat yoqlinlari ko'zingizni qamashtiradi.



berdi. Nurshohrux 2016-yili ilk bor g'oliblik nashidasini surib, shohsupaga ko'tarildi. O'shanda u milliy kurash bo'yicha tuman birinchiligida qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritgan edi. Keyin esa yana va yana...

— O'g'limning sport to'garagiga qatnashiga boshida qarshi bo'ldim. Chunki u kichikligida juda nimjon, tez-tez kasallikka chalinar, — deydi onasi Nodira Shomurotova. — Ammo sport seksiyasiga qatnay

boshlagach, bu hol butunlay barham topdi.

Qahramonimiz bugun Navoiy shahridagi 2-maktabda ta'lim olmoqda. Darsdan bo'sh vaqlari sport bilan shug'ullanish barobarida rus, ingliz tillari, fizika, matematika fanlaridan qo'shimcha saboq olib, o'z bilim va dunyoqarashini kengaytirmoqda.

N.Iсроilov sport bilan shug'ullanishni kanda qilmadi, endilikda u o'zbek jang san'ati bilan shug'ullanishni davom ettirib, 2018-yilning o'zida yetti bor turli musobaqalarda sovrindor bo'ldi. Shularning uchitasi respublika, bittasi xalqaro miqyosdagi musobaqa.

Tog'li G'ozg'ondagi birgina sport majmuasi hududlardagi yoshlarni bir ezgu g'oya, ezgu maqsad atrofiga birlashtirib, yangi-yangi dovonlar sari qanot bo'lmoqda.

H.QUVONDIQOV

O't bilan o'ynashib bo'lmaydi!

Yoz faslida hovli-xonadonlarimizda bunyodkorlik ishlari avj oladi. Kimdir ezgu niyat bilan yangi uy qursa, kimdir zamona zayliga boqib, turarjoyini tubdan ta'mirlashga kirishadi. Bu yaxshi, albatta! Ammo, "Har to'kisda bir ayb!" deganlaridek, jarayonda ba'zan jiddiy xato-kamchiliklarga ham yo'l qo'yilmoqda.

Ayrimlar davlat standartlari talablariga javob bermaydigan elektr va gaz uskunalarini xarid qilib, xonadonlariga o'zboshimchalik bilan o'rnatadi. Bu vaqti-soati kelib, ayanchli oqibatlariga olib keladi. Ayniqsa, o'sha uskunadagi arzimaddek tuyulgan nosozlik tufayli kelib chiqqan yong'in o'ta xavfli hisoblanadi. Hushyorlik boy berilsa, "tilsiz yov" yillar davomida qilgan mehnat samarasini o'z domiga tortib, sanoqli daqiqalar ichida uni kultepaga aylantiradi. Achinarlisi, u gohida odamlar hayoti va sog'lig'iga jiddiy xavf tug'diradi. Shuning uchun ham xalqimiz "o't balosidan, suv balosidan, tuhmat balosidan asrasin!" deydi.

Keyingi paytlarda yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar jarayonida ma'lum bo'lishicha, aksariyat uy bekalari kiyim-kechaklarini tabiiy gazda ishlaydigan oshxona plitalari yordamida quritishga urinmoqda. Shu maqsadda hatto tunlari ham ularni yoqib qo'yadi. Oxir-oqibat qarovsiz qolgan bu uskunalarining olovi o'chib, fojia bilan yakun topmoqda. Birinchidan, oila a'zolari gazdan zaharlanmoqda, ikkinchidan, xona ichiga yig'ilib qolgan gaz bexosdan portlab, katta yong'inlarga sabab bo'lmoqda. Bunday noxush holatlar gaz rezina shlanglar orqali olib kelinganda ham kuzatilmog'da.

Modomiki, shunday ekan, biz barcha-barchani bu ofatlardan ogoh bo'lishga, yong'in xavfsizligi qonun-qoidalariga rioya qilishga chaqiramiz.

Dilshod BOLEGENOV,
Oliy Majlis Senati binosini yong'in dan muhofaza qiluvchi
YXB inspektori, katta serjant

Bilasizmi?

Sport olamidagi qiziqarli faktlar

Insoniyat qadimdan sport bilan shug'ullanib keladi. Bugungi texnologiyalar asrida ham ko'pgina o'zgarish va bo'hronlarni boshidan kechirgan odamzod hamon sportga ehtiyoj sezadi. Insonni mavjud hayot tarzidan boshqa bir olamga boshlab kirishga qodir bo'lgan sport olamida siz-u bizni qiziqitiruvchi talaygina qiziqarli faktlar mavjud. Ularning ba'zilarini e'tiboringizga havola etamiz.

- Boks an'anaviy sport turi sifatida bir necha asrlardan buyon sportchilarning sevimli mashg'uloti sanalsa-da, sport turi sifatida rasmiy maqomni 1900-yilga kelibgina qo'lga kiritgan.

- Futbol tarixidagi barcha jahon chempionatlarida qatnashish baxtiga musharraf bo'lgan yagona terma jamoa — Braziliya.

- Dunyodagi eng novcha basketbolchi — xitoylik Sun Minmin bo'lib, uning bo'yi 236 sm.

- Zamonaviy futbolda eng uzun familiyaga ega sportchi Gollandiya terma jamoasining sobiq a'zosi Yan Vennegor of Xesselinkdir.

- Ilk marotaba darvozabon niqobidan Berlinda o'tkazilgan 1936-yilgi xokkey musobaqasida yaponiyalik Tanaka Xoima foydalangan.

- Boks qiroli Mayk Tayson professional boksdagi faoliyati davomida 51 ta uchrashuv o'tkazgan bo'lib, ularning 21 tasi (40,8 foiz)da birinchi raunddayoq raqibni nokautga uchratgan.

- Xalqaro xokkey federatsiyasi turnirlari orasida alohida nufuzga ega bo'lgan Stenli kubogida g'olib jamoaga faqatgina kubokning nusxasi beriladi, xolos. Kubokning asl nusxasi esa Torontodagi xokkey shon-sharaf muzeyida saqlanadi.

- Professional voleybolchi tomonidan urilgan to'p soatiga 130 km tezlikda ucha oladi. Tajribali xokkeychi zarba bergan shaybaning tezligi esa 160 km/soat tezlikda parvoz etishi mumkin.

Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, quruqlikda eng tez harakatlanuvchi jonzor — gepard soatiga 120 kilometr tezlikda harakatlanish imkoniyatiga ega.

- "Detroyt Free Press" nashri tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, professional xokkeychilarning 68 foizi muz ustida harakatlanish davomida kamida bitta tishidan ajralgan.

- Dunyodagi eng mitti davlat — Vatikaning futbol jamoasi o'z tarixida faqat bitta xalqaro o'yin o'tkazishga muvaffaq bo'lgan. Monako terma jamoasi bilan o'tkazilgan ushbu o'yin 0:0 hisobida yakunlangan.

- Shaxmatchida dastlabki o'nta yurishda 170.000.000.000.000.000.000 ta variant bor.

- 1936-yilgi stol tennis turnirining ilk uchrashuvida ruminiyalik Panet Farkas va polyak Aleks Enrlx bir ochko uchun 2 soat-u 12 daqiqa davomida to'xtovsiz o'ynagan.

- 2010-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionatida Ispaniya termasi g'olib bo'lgach, finalda foydalanilgan to'p kimoshdli savdosida 78 808 dollarga sotilgan.

- "Ulkan toj" turkumidagi "Uimblon" turniri tarixida eng yosh chempionlar — erkaklar (yakkalik) o'rtasida Boris Bekker (17 yosh 227 kun), ayollar (yakkalik) o'rtasida Mariya Sharapova (17 yosh 75 kun).

HUMOYUN tayyorladi.

Xaydarov Nodirjon Kadirovichning 14.00.33 — Jamiyat salomatligi. Sog'liqni saqlashda menejment va 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Bosh miya qon aylanishi o'tkir buzilishi o'tkazgan bemorlarda tibbiy reabilitatsiyani takomillashtirishning tashkiliy aspektlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 9-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy. Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz


Isanova Dilfuza Tursunovnaning 03.00.04 — Mikrobiologiya va virusologiya ixtisosligi bo'yicha "Tug'ish yoshidagi ayollar siydik yo'llari infeksiyalari qo'zg'atuvchilarining mikrobiologik tavsifi va asosiy taksonomik belgilari o'zgaruvchanligining xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.30.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2019-yil 15-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy. Toshkent davlat stomatologiya instituti.

Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Ta'til zavqi

Qaynoq yoz faslining ikkinchi oyi ham nihoyasiga yetib, o'quvchilarni maktab quchog'iga chorlovchi yangi o'quv yili kun sayin yaqinlashmoqda. Bu vaqtda esa maktablar qoshidagi sog'lomlashtirish maydonchalari va shahar tashqarisidagi yozgi oromgohlarda oxirgi mavsum davom etmoqda.



Poytaxtimizning Shayxontohur tumandagi 324-maktab qoshida tashkil etilgan "Ma'rifat g'unchalari" yozgi sog'lomlashtirish maydonchasida ham ta'til davomida 5 ta tashabbus bo'yicha amaliy ishlar olib borildi, turli to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi.

5 tashabbusning 1-yo'nalishi bo'yicha o'gil-qizlarning teatr va san'atga qiziqishini oshirish maqsadida "Bog'ir-soq", "Tulki va turna", "Bo'ri bilan tulki" kabi o'zbek xalq ertaklari asosida o'qituvchi-tarbiyachilar ijrosida qo'g'irchoq teatri namoyish etildi. Uni tomosha qilgan bolalar bir olam zavq oldilar.

Sport yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan tadbirga bokschi, XXVI yozgi olimpiya o'yinlari sovrindori Karim To'laganov va shogirdi sport ustasi Yashnar Qo'chqorov taklif etildi. Ular yosh shogirdlariga mahorat darslari o'tishdi. O'quvchilarni jismoniy chiniqtirish maqsadida doimiy ravishda badantariya mashqlari olib borildi. Bundan tashqari, qiziqarli harakatlilar o'yinlar, turli estafeta musobaqalari o'tkazilib, shaxmat, shashka, stol tennis, badminton, basketbol, futbol, voleybol to'garaklari a'zolarining faol ishtiroki ta'minlandi.

"Yosh qalamkashlar", "Yosh das-



turchilar" to'garaklari ijodkor, izlanuvchan o'quvchilar bilan gavjum bo'ldi.

"Ma'rifat g'unchalari" sog'lomlashtirish maydonchasining 4-mavsumida maydoncha rahbari Husan Ro'ziyev, bosh tarbiyachi Dilrabo Ulug'ova, tarbiyachilar Nargiza Ibodxojayeva, Dilduza Toshmatova, Nasiba Aliyeva, Nasiba Nurmuhamedova o'quvchi-yoshlar

ma'naviyatini yuksaltirish, ularni kitobxonlikka jalb etish, jismonan chiniqtirib, iste'dodini rivojlantirish ishlarida faol ishtirok etdilar.

Nargiza IBODXOJAYEVA,
"Qiziqarli matematika" to'garagi rahbari

Vladimir GRANKIN
olgan suratlar.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-729. Tiraj 12112.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqdir
qilinmaydi va mul-
lfiga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Niginabonu Shukurova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'za yakuni — Topshirildi — 00:30

12 456